

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MAGISTRATURA BO‘LIMI**

*Qo‘lyozma huquqi asosida  
UDK: 35.01*

**XO‘JAMBERDIYEV BEZXOD SHUXRAT O‘G‘LI**

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA XALQARO MOLIYA  
OPERATSIYALARINI BOSHQARISH**

**Mutaxassislik: 5A230604 – Xalqaro moliya**

**Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ **I.f.n. dotsent Sattarov Bahodir Kazakbayevich**  
imzo ilmiy darajasi va unvoni, familiyasi, ismi-sharifi

**TOSHKENT – 2018**

**Dissertatsiya Toshkent moliya instituti “Moliya” kafedrasida  
bajarilgan.**

**Ilmiy rahbar**

\_\_\_\_\_

imzo

\_\_\_\_\_

Ilmiy darajasi va unvoni, familiyasi, ismi, sharifi

**Kafedra mudiri**

\_\_\_\_\_

imzo

\_\_\_\_\_

Ilmiy darajasi va unvoni, familiyasi, ismi, sharifi

**Magistratura bo‘limi boshlig‘i**

\_\_\_\_\_

imzo

\_\_\_\_\_

Ilmiy darajasi va unvoni, familiyasi, ismi, sharifi

## KIRISH

**Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi.** Jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan hozirgi zamon jahon iqtisodiyotida mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar har bir mamlakat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarish va ularni tartibga solish nafaqat mamlakat aholisiga, balki mamlakatimiz hukumati bilan hamkorlikda ish yuritayotgan xalqaro tashkilotlar va boshqa mamlakatlar hukumatlari uchun ham foydali hisoblanadi. O'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyotida xalqaro moliya operatsiyalari, jumladan, eksport va import, xorijiy kapital oqimlari, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar ortib bormoqda.

Ma'lumki, xalqaro moliya operatsiyalar mamlakat to'lov balansini tuzishning asosi hisoblanadi va to'lov balansining ko'rsatkichlari asosida mamlakatning ahvoli va uning salohiyatiga baho beriladi. Shu sababli xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solish va ularni boshqarish jarayonida huquqiy-me'yoriy asoslar va alohida strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Yetakchi rivojlangan mamlakatlarda xalqaro moliya operatsiyalari tartibga solish va boshqarishga oid ulkan tajriba shakllangan bo'lib, rivojlanib borayotgan mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun ushbu mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish yuqori samara berishi mumkin.

Ayni vaqtda mamlakatimizda xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarish hali yetarli darajada rivojlanmagan va hozirda shakllanish bosqichidadir.

2017-yil yakunlari bo'yicha mamlakat jami eksport va importi qariyb 28 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Tashqi aylanma saldosi esa 945,5 mlrd. AQSH dollariga yetgan<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda o'tgan yillar mobaynida tashqi iqtisodiy siyosatni rivojlantirish, huquqiy me'yoriy bazani takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2017-yil

---

<sup>1</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlari asosida

20-dekabrda "Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3439-sonli qarori<sup>2</sup> xalqaro miqyosda amalga oshiriladigan iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamda O'zbekiston Respublikasida xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solish va boshqarishning yetarli darajada rivojlanmaganligi va bu borada taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishning zarurligi mazkur magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Investitsiyalar bo'yicha Davlat qo'mitasi va xalqaro moliya tashkilotlari va institutlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti esa mamlakatimiz bilan chet el mamlakatlari, xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solish yuzasidan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, quyidagilar tadqiqot vazifalari etib belgilandi:

- Mamlakatimizdagi joriy xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solish holatiga baho berish;
- Yetakchi rivojlangan mamlakatlarning xalqaro moliya munosabatlari bo'yicha tajribasini o'rganish va ularni umumlashtirgan holda O'zbekiston Respublikasida foydalanish;
- Xalqaro moliya tashkilotlarining xalqaro moliya operatsiyalarini amalga oshirishdagi o'rnini o'rganish va ularning amaliy tavsiyalaridan foydalanish;
- O'zbekiston Respublikasida xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solish yuzasidan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ulardan foydalanish

---

<sup>2</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21-dekabr 2017-yil, 07/17/3439/0433-son

### **Ilmiy yangiligi quyidagilar hisoblanadi:**

- ◆ Xalqaro moliya operatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini aniqlab berildi;
- ◆ Rivojlangan mamlakatlar xalqaro moliya tizimi tajribalari o'rganildi va ulardan mamlakatimizda foydalanish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;
- ◆ Mamlakatimizda xalqaro moliya operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar ochib berildi;
- ◆ Mamlakatimizdagi xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solish yuzasidan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning afzalliklari yoritib berildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Mamlakatdagi xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishning huquqiy-me'yoriy asoslari va bugungi kundagi xalqaro moliyaviy munosabatlarning ahamiyati va bu sohaning amaldagi holatini tahlil qilish tadqiqot ishining asosiy masalasi hisoblanadi.

Dissertatsiya yakunida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotda qo'llanishi mamlakatimizda xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solishda o'zining samarasini berishi mumkin.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).** Xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan Peter J. Montiel<sup>3</sup>, Colin D. Campbell, Edwin G. Golan<sup>4</sup>, S. R. Moiseyev, L. N. Krasavina<sup>5</sup>, Mukesh Ralhan<sup>6</sup>, C. Paramasivan, T. Subramanian<sup>7</sup>, Xalqaro Valuta Fondi ekspertlari David Marston, Johnatan Ostry<sup>8</sup> kabilarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

---

<sup>3</sup> "Capital inflow problem", the World bank, Washington D.C.

<sup>4</sup> Money, banking, and monetary policy, the Dryden Press, a division of Holt

<sup>5</sup> «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения, Москва – «Финансы и Статистика» 2012.

<sup>6</sup> "Determinants of capital flows: a cross-country analysis", department of Economics, University of Victoria, Victoria, BC, Canada

<sup>7</sup> "Financial management", New age international publishers, Vivekananda college of arts and sciences for women

<sup>8</sup> Liberalizing capital flows and managing outflows, International Monetary Fund

Mamlakatimiz iqtisodchilaridan esa J.Ataniyazov, E.Alimardonov<sup>9</sup>, A.Vahobov, U.Burxanov, N.Jumayev<sup>10</sup>, G.Nazarova, I.Ahmedov<sup>11</sup> kabilarning ilmiy ishlarida xalqaro moliya operatsiyalarining ayrim masalalari tadqiq qilingan.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.** Tadqiqot ishida ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, guruhlash, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishi yakunida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar mamlakatdagi xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishni tashkil etish, ularning huquqiy asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda foydalanish mumkin. Dissertatsiya ma'lumotlaridan oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari o'qitish tizimlarida "Xalqaro moliya munosabatlari" fani o'quv jarayonlarida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot ishi tuzilmasining tavsifi.** Mazkur magistrlik dissertatsiya ishi kirish, 3ta bob, har bir bob bo'yicha xulosa, yakuniy xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, 7ta jadval, 6ta rasmdan iborat va 91 betni tashkil etadi.

Birinchi bobda Xalqaro moliya operatsiyalarining mohiyati, tasnifi va nazariy asoslari deb nomlanib, xalqaro moliya operatsiyalarining mohiyati va turlari, xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solishda qo'llaniladigan usullar, xalqaro moliya operatsiyalarida xalqaro moliya institutlarining o'rni ochib berilgan va bob yakunida bob bo'yicha xulosa bilan tugallangan.

Ikkinchi bobda xalqaro moliya operatsiyalarining to'lov balansiga ta'siri deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda xalqaro moliya operatsiyalarining to'lov balansida aks ettirilishi va ularni boshqarishda qo'llaniladigan usullarning ta'siri tahlil qilingan va bob so'ngida bob bo'yicha xulosa bilan yakunlangan.

---

<sup>9</sup> "Xalqaro moliya munosabatlari", O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, T: 2014

<sup>10</sup> "Xalqaro moliya munosabatlari", Toshkent moliya instituti, T: 2013

<sup>11</sup> "Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar", o'quv qo'llanma, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti.

So'nggi uchinchi bob O'zbekiston sharoitida xalqaro moliya operatsiyalarining huquqiy asoslari va ularni rivojlantirish yo'llari deb nomlangan va ushbu bobda mamlakatimizda xalqaro moliya operatsiyalarining huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'llari, mamlakatimizning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvining istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Bob oxirida bob bo'yicha xulosa qilingan.

Magistrlik dissertatsiyasi so'nggida tadqiqot ishi bo'yicha qilingan xulosa va takliflar keltirilgan.

Tadqiqot ishi bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati magistrlik dissertatsiyasi yakunida keltirilgan.

## **I BOB. XALQARO MOLIYA OPERATSIYALARINING MOHIYATI, TASNIFI VA NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1 Xalqaro moliya operatsiyalarining mohiyati va uning tasniflanishi**

Xalqaro moliya - xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Xalqaro moliya munosabatlari muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro darajada shakllantirilgan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Xalqaro moliya munosabatlari o'ziga xalqaro valuta munosabatlari, xalqaro kredit munosabatlari, xalqaro investitsiya munosabatlari, xalqaro savdo munosabatlari, xalqaro soliq munosabatlari, xalqaro lizing munosabatlari, mamlakatlar to'lov balansini boshqarish, xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalar kabi munosabatlarni qamrab oladi<sup>12</sup>.

Globallashuv jarayoni - jahon savdosining o'sishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kengayishi, kapitalning xalqaro oqimi rivojlanishi, xizmatlar va mahsulotlarning xalqaro harakati xalqaro moliyaning rivojlanishiga zamin yaratdi. Shuningdek, mazkur holat jahon moliya bozorlarining, xalqaro moliyaviy korporatsiyalarning yuzaga kelishiga, davlatlararo moliyaviy munosabatlarning va xalqaro moliyaviy faoliyatning boshqa jihatlari murakkablashuviga olib keldi.

Xalqaro moliya o'zida obyektiv asosga ega bo'lgan moliyaviy munosabatlarni ifodalaydi. Xalqaro moliyaning moddiy asosi mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladigan xalqaro moliyaviy oqimlar, jumladan, pul oqimlari, import qilingan mahsulot va xizmatlarning to'lovlari hamda mahsulot va xizmatlar eksportidan kelgan valuta tushumlari, ushbu oqimlar xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasini ifodalashi mumkin, lekin ular turli mamlakatlarga tegishli bo'ladi. Shu boisdan mamlakatlar o'rtasidagi pul oqimlari harakatini namoyon etadi. Shuningdek, kredit mablag'lari oqimi ham ikki tomonlama bo'lib hisoblanadi, bir tomondan qarzning berilishi bo'lsa, boshqa tomondan esa, uning qaytarilishi va foizlarning to'lanishi namoyon bo'ladi. Shunday qilib, mazkur oqimlar asosida moliyaviy resurslarning

---

<sup>12</sup> J. Ataniyazov, E. Alimardonov. "Xalqaro moliya munosabatlari" – darslik – T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2014, 433 b.



mamlakatlar o'rtasidagi harakati yuzaga keladi. Ularning taqsimlanishi bir tomondan valuta kurslari asosida, ikkinchi tomondan esa, bojxona tariflari asosida boshqariladi.

Xalqaro moliya doimiy o'zgaruvchan xalqaro pul tizimlarining holati va rivojlanishini, alohida mamlakatlar to'lov balan- sining o'zgarishini, xalqaro moliya bozorlari, xalqaro moliyaviy korporatsiyalar, xalqaro bank va investitsion faoliyatni namoyon etadi. Xalqaro moliya tizimining asosiy ishtirokchilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: banklar, transmilliy korporatsiyalar, portfel investorlar va xalqaro rasmiy qarzdorlar. Xalqaro moliyaviy operatsiyalar alohida mamlakatlarning moliya tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi kuch hisoblanadi.

Xalqaro moliya operatsiyalari pul mablag'laridan foydalanish va ularni shakllantirishda vujudga keladigan tashkiliy va pul munosabatlarini boshqarishga yo'naltirilgan ma'lum bir masalani hal etishga qaratilgan aniq belgilangan ma'lum bir xatti-harakatlarni ifoda etadi.

Ular pul to'lovlari (hisob-kitob, transfert) bilan yoki kapital oqimi (lizing, trast, franchayzing) bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kapital – bu aylanma kiritilgan pul mablag'lari bo'lib, shu aylanmadan daromad keltiradi. Bular jumlasiga tadbirkor tomonidan o'zining faoliyati davomida foyda olish uchun yo'naltirgan har qanday turdagi mulkiy va intellektual qimmatliklarini kiritish mumkin. Kapital harakati moliyaviy aktivlar harakati orqali ifoda etiladi. Moliyaviy aktiv – bu shunday tovar, u moliya bozorida sotiladi va sotib olinadi. Bularga valutalar, investitsion qimmatliklarni (qimmatli qog'zolar, qimmatbaho metallar, ko'chmas mulk) kiritish mumkin. Moliyaviy qimmatliklar moliyaviy operatsiyalarning obyekti hisoblanadi va bu operatsiyalarning tasnifiy belgisi bo'lib xizmat qilish mumkin.<sup>13</sup>


Xalqaro moliya operatsiyalarining boshqa belgisi bu ularning qay maqsadga yo'naltirilganligidir. Bu jihatdan xalqaro moliya operatsiyalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

---

<sup>13</sup> Д.Р. Вахитов, Г.Н. Белицкая, Г.Т. Гафурова “Финансы” учебно-практическое пособие. – Казань, Институт экономики, управления и права, 2013г, 158 стр.

- pul o'tkazmalari operatsiyalari;
- investitsion operatsiyalar;
- spekulyativ (chayqovchilik) operatsiyalar;
- kapitalning yuqori daromad keltiruvchi qobiliyatini saqlab qolishga qaratilgan operatsiyalar.

Pul o'tkazmalari operatsiyalari jumlasiga hisob-kitobning barcha turdagi shakllari va turlarini (pul-tovar operatsiyalari) va transfertlarni (pulning bir tomonlama harakati) kiritish mumkin.



**1.1-rasm. Xalqaro moliya operatsiyalarining yo'naltirilgan maqsadiga ko'ra turlari<sup>14</sup>**

Investitsion operatsiyalarga daromad olishga yo'naltirilgan kapitalning ko'chib yurishi bilan bog'liq operatsiyalarni anglatadi. Investitsion operatsiyalar uzoq va o'rta muddatli kapital qo'yilmalar bilan aloqadordir. Bularga kredit, lizing,

<sup>14</sup> Д.Р. Вахитов, Г.Н. Белицкая, Г.Т. Гафурова “Финансы” учебно-практическое пособие. – Казань, Институт экономики, управления и права, 2013 г. 158 стр.

trast, ijara, franchayzing va boshqa muddati 180 kundan oshadigan operatsiyalar misol bo'ladi.

Spekulyativ operatsiyalar – sotib olish va sotish kurslaridagi farqlar orqali foyda olishga qaratilgan qisqa muddatli operatsiyalar bo'lib, olingan kreditlar va berilgan qarzar foizi o'rtasidagi farqlar ham shular jumlasidan. Shuningdek, valuta arbitraji, foiz arbitraji va boshqalar.

Kapitalning yuqori daromad keltiruvchi qobiliyatini saqlab qolishga qaratilgan operatsiyalar kapitalni risk mavjud hollarda va xo'jalik faoliyati holatining noaniq davrida bajariladigan xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Eng asosiylaridan biri bu sug'urta operatsiyalari (hedjrlash, garov operatsiyalari), diversifikatsiyalash va boshqalar.

Xalqaro moliya operatsiyalarining tasniflanishi:

1) Konversion valuta operatsiyalari (naqd va naqdsiz valutilarni sotish va sotib olish (cheklangan konversion valutilar ham shular jumlasidan)):

- Turli mamlakatlarda joylashgan savdo tashkilotlarining o'zaro hisob-kitoblari;

- Xalqaro kredit-jamg'arma operatsiyalari.

2) Eksport ssudalari (texnologiya va tayyor mahsulotning eksportini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan moliyalashtirish);

- Xalqaro ssudalar (sanoat tovarlari, texnologiyalar va resurslar importini qo'llab-quvvatlashni kreditlash);

- Tashqi investitsion kreditlash (chet el investitsiyalarini qo'llab-quvvatlashga qarzar berish);

- Bog'lanmagan kreditlar (rivojlanib borayotgan iqtisodiyotli mamlakatlarda tashkiliy islohotlarni amalga oshirish uchun hukumatga yoki mamlakatning boshqa tashkilotlariga taqdim etiladigan moddiy yordam);

- Asosiy moliyalashtirishning vaqtinchalik bosqichida ajratiladigan qisqa muddatli kreditlar (qisqa muddatli moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalarni ta'minlash uchun rivojlanib borayotgan iqtisodiyotli mamlakatlarning hukumat tashkilotlariga beriladigan ssudalar);

- Qayta moliyalash (rivojlanib borayotgan iqtisodiyotli mamlakatlar boshqa mamlakatlar yoki xalqaro kredit tashkilotlari oldidagi qarzini qaytarishga qaror qilganda hukumat tashkilotlariga beriladigan ssudalar);

- Ulushli ishtirok (qo'shma kompaniyaning aksionerlik kapitaliga mablag' kiritish);

- Kafolatlar (tijorat banklarining kredit kafolatlari va davlat obligatsiyalari bo'yicha kafolatlar).

Ofshor operatsiyalari ham xalqaro moliya operatsiyalarining yana bir turi hisoblanadi. Ofshor moliyaviy operatsiyalari kompaniyalarning savdo va moliyaviy operatsiyalari asosi bo'lib xizmat qiladi. Ularning ro'yxati soliq porti maqomiga ega mamlakatlar hududida olib boriladi. Ofshor xalqaro moliya operatsiyalari samarali moliyaviy instrument bo'lib, soliq stavkasining pastligini va tijorat sirini saqlashni kafolatlaydi. Ofshorlar mexanizmi quyidagi operatsion xizmatlardan tashkil topgan:

- Moliyani boshqarishda foydalaniladigan spekulyativ operatsiyalar (valuta dilingi, investitsiya kiritish, mamlakat chegarasidan tashqarisida joylashgan ko'char va ko'chmas mulkka egalik qilish);

- Ofshor kompaniyalarni tashkil etish, ro'yxatdan o'tkazish, bankdagi hiob-kitob raqamlari orqali uni sotish va sotib olish, va boshqalar;

- Soliq to'lovlarini takomillashtirish uchun soliqqa tortish masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

Ofshor operatsiyalarining asosi ularning qattiq sir tutilishidadir. Tijorat siri dahlsizligi egasi nominal boshqaruvchi hisoblanadigan maxsus aksiyalarni e'lon qilish orqali ta'minlanadi.

Ofshor kompaniyalar butun dunyoda savdo-moliyaviy operatsiyalar amalga oshirishi mumkin ular quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi.

- Eksportchi yoki importchining valuta aktivlariga mos ravishda operatsiyalarni tez amalga oshirish imkoniyati;

- Bitimlarni amalga oshirish jarayonidagi xarajatlarni hisobdan chiqarish kabilar.

Investitsion operatsiyalar – bu jalb qilingan pul mablag'larini turli xil manbalarga joylashtirish operatsiyalari bo'lib, bu manbalarning xarakteridan kelib chiqib investitsion operatsiyalarni tasniflash mumkin.

Investitsion operatsiyalarni turli belgilarga qarab tasniflash mumkin, eng avvalo, qarz oluvchilarga guruhiga (subyektga) qarab:

- Hukumatning davlat organlariga investitsiya (davlat qimmatli qog'ozlari);
- Tijorat banklariga investitsiyalar (banklararo kreditlar);
- Sanoat va qishloq xo'jaligiga investitsiyalar (tijorat kreditlari);
- Korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar.

*Xalqaro kapital harakatining mohiyati va turlari.* Xalqaro kapital harakati sifatida mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy resurslar oqimi milliy investitsiya va jamg'arma o'rtasidagi nomutanosiblik oqibatida kelib chiqadi. xalqaro kapitallar harakati – ayni vaqtda nisbiy ortiqcha bo'lgan pul yoki tovar moddiy mablag'larni mamlakat chegarasidan chetga joylashtirilishidir. Bu iboraning sinonimi kapital eksporti yoki kapitalni chiqarishdir<sup>15</sup>.

Moliyaviy globallashuv sharoitida xalqaro kapitallar harakatida o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi:

- Jahonda kapitalning notekis joylashishi. bunda kapital resursi kapitalga boy mamlakatdan kapitalga muhtoj mamlakatga qarab oqib boradi;
- Ko'p mamlakatlarda jamg'arma va investitsiyaning nomutanosibligi. Buning natijasida investitsiya uchun ortiqcha mablag'lar yoki defitsit sodir bo'ladi. Oqibatda mos ravishda kapitalning sof eksporti yoki importi vujudga keladi;
- Mamlakatlarning investitsion muhitidagi, shuningdek kapital qo'yilmalar uchun sharoitlardagi farqlanishlar;
- Kapital egasining kapitaldan foydalanish samaradorligidagi farqlar va uning boshqa chet eldagi kapitalni egallashga qaratilgan harakatlari hamda kapitaldan samarasiz foydalanayotgan joydan o'rin olishga harakat qilishi;


---

<sup>15</sup>A.Vahobov, U.Burxonov, N.Jumayev, "Xalqaro moliya munosabatlari", Toshkent moliya instituti, T: 2013

▪ Iqtisodiy resurs sifatida odatda kapitalni yuqori darajada safarbar etilishi. Bu holat jahon iqtisodiyoti globallashuvi, erkinlashuvi, transmilliylashuvi va integratsiyalashuvi sharoitida yanada ko‘proq kuchga ega bo‘ladi.

Xalqaro kapitalning asosiy shakllari sifatida rasmiy kapital, xususiy kapital, qisqa, o‘rta va uzoq muddatli, tadbirkorlik kapitali, ssuda kapitali, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalarni keltirib o‘tish mumkin.

Xalqaro kapitalning asosiy shakllari sifatida rasmiy kapital – davlatlararo tashkilotlar va hukumat qarorlari asosida davlat budjeti mablag‘larini chet eldan qabul qilish yoki chet elda joylashtirishdir.



**1.2-rasm. Xalqaro kapital turlari<sup>16</sup>**

Xususiy kapital - xususiy yuridik shaxslar (firma, korxonalar, tashkilotlar, banklar va boshqalar)ning mablag‘larini ularning boshqaruv organlarining qarorlari asosida chet ellarda joylashtirishdir<sup>17</sup>.

<sup>16</sup> Д.Р. Вахитов, Г.Н. Белицкая, Г.Т. Гафурова “Финансы” учебно-практическое пособие. – Казань, Институт экономики, управления и права, 2013г, 158 стр.

<sup>17</sup> Д.Р. Вахитов, Г.Н. Белицкая, Г.Т. Гафурова “Финансы” учебно-практическое пособие. – Казань, Институт экономики, управления и права, 2013г, 158 стр.

Jahon kapital eksportida xususiy kapital yetakchi bo‘lib, o‘z navbatida davlat kapitali, xalqaro tashkilotlarning kapitali keyingi o‘rinlarda turadi. Odatda davlat va xalqaro tashkilotlar chetga kapitalni ssuda shaklida, kredit va qarz ko‘rinishida hamda moddiy yordam ko‘rinishida chiqaradi. Rasmiy va xususiy kapital xalqaro kapitalning ikki xil: tadbirkorlik va ssuda kapitali shaklida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro tadbirkorlik kapitali tadbirkorlik foydasini olish uchun chet elda bevosita va bilvosita mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qo‘yilgan mablag‘lar hisoblanadi.

Xalqaro ssuda kapitali esa muddatlilik, qaytarishlilik, to‘lovlilik shartlari asosida, foiz ko‘rinishida daromad olishni ta‘minlovchi, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga chiqarilgan kapitalga aytiladi. Xalqaro ssuda kapitali chet el valyutasidagi depozitlar yoki chet elga bank depozitlari va boshqa qo‘yilmalar, shuningdek kredit va qarzar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Statistika ssuda kapitali ko‘rinishidagi investitsiyalarni “boshqa investitsiyalar” sifatida aks etadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – mamlakatga uzoq muddatli iqtisodiy foydani ko‘zlab qo‘yilgan kapital bo‘lib, u investorga kapital joylashtirilgan ob‘ekt ustidan nazorat olib borishni ta‘minlaydi. Bu odatda korxonaning 10 foizdan kam bo‘lmagan aksiyasi yoki ulushiga ega bo‘lishni talab etadi.

Xalqaro portfel investitsiyalar – chet el qimmatli qog‘ozlari(qarzar majburiyatini va ulush munosabatini ifodalovchi qimmatli qog‘ozlar va boshqalar)ga qo‘yilgan kapital bo‘lib, u investorga kapital joylashtirilgan ob‘ekt ustidan real nazorat olib borish huquqini bermaydi. Odatda amaliyotda bunday investitsiyalar aksiya, obligatsiya, veksell va boshqa qarzar majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog‘ozlarning kichik paketi, shuningdek ba‘zan portfel investitsiyalardan alohida shakl kasb etuvchi qimmatli qog‘ozlarning hosilalari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin<sup>18</sup>.

---

<sup>18</sup> A.Vahobov, U.Burxonov, N.Jumayev, “Xalqaro moliya munosabatlari”, Toshkent moliya instituti, T: 2013

Xalqaro kapital harakatining zamonaviy holati bilan bog‘liq quyidagi tendensiyalar jahon iqtisodiyoti amaliyotda kuzatilmoqda:

- Jahondagi kapitalni eksporti va importida rivojlangan mamlakatlar yetakchilik qilmoqda.

- Xalqaro tadbirkorlik kapitali harakati tarkibida portfel investitsiyalar tomonga siljish tendensiyasi mavjud. Xalqaro portfel investitsiyalar hajmining oshib borishi bugungi kun jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining kelib chiqishiga asosiy sabablardan bo‘lmish “moliyaviy ko‘pik”larning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan.

- Xalqaro kreditlar va depozitlarning jahon investitsiyalari tarkibidagi ulushi jahon moliyaviy inqirozidan keyingi davrda kamayib bormoqda.

- Jahon kapital eksportidagi Xitoyning ulushi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan bir sharoitda, kapital importida AQShning ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Shunga qaramay jahon kapital importida AQShning ulushi hali-hamon saqlanib qolmoqda.

- Sanoati rivojlangan mamlakatlarda chet el investitsiyalarini joylashtirishning asosiy sohasi bank – moliya sektori, xizmatlar sohasi (buning ichida axborot telekommunikatsiya sohasi eng yetakchidir), farmatsevtika, biotexnologiya, elektron sanoat, ilmiy va texnologik mashinalar ishlab chiqarish bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda avvalgidek to‘g‘ridan – to‘g‘ri chet el investitsiyalar neft – gaz qazib chiqarishga, mashinasozlikning alohida sektorlariga, agrosanoat kompleksiga jalb etilmoqda;

- Tadbirkorlik kapitali migratsiyasida sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida ayniqsa “Uchlik” (AQSh, G‘arbiy Yevropa, Yaponiya) mamlakatlari asosiy salmoqqa ega;



## **1.2 Xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solishda qo'llaniladigan usullar**

Xalqaro moliya moliya operatsiyalarini tartibga solish va ularni muvofiqlashtirish jahon iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi.

Xalqaro kapital harakati sifatida mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy resurslar oqimi milliy investitsiya va jamg'arma o'rtasidagi nomutanosiblik oqibatida kelib chiqadi. Xalqaro kapitallar harakati - ayni vaqtda nisbiy ortiqcha bo'lgan pul yoki tovar moddiy mablag'larni mamlakat chegarasidan chetga joylashtirilishidir. Bu iboraning sinonimi kapital eksporti yoki kapitalni chiqarishdir<sup>19</sup>.

Moliyaviy globallashuv sharoitida xalqaro kapitallar harakatida o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi:

- Jahonda kapitalning notekis joylashishi. Bunda kapital resursi kapitalga boy mamlakatdan kapitalga muhtoj mamlakatga qarab oqib boradi;
- Ko'p mamlakatlarda jamg'arma va investitsiyaning nomutanosibligi. Buning natijasida investitsiya uchun ortiqcha mablag'lar yoki defitsit sodir bo'ladi. Oqibatda mos ravishda kapitalning sof eksporti yoki importi vujudga keladi;
- Mamlakatlarning investitsion muhitidagi, shuningdek kapital qo'yilmalar uchun sharoitlardagi farqlanishlar;
- Kapital egasining kapitaldan foydalanish samaradorligidagi farqlar va uning boshqa chet eldagi kapitalni egallashga qaratilgan harakatlari hamda kapitaldan samarasiz foydalanayotgan joydan o'rin olishga harakat qilishi;
- Iqtisodiy resurs sifatida odatda kapitalni yuqori darajada safarbar etilishi. Bu holat jahon iqtisodiyoti globallashuvi, erkinlashuvi, transmilliylashuvi va integratsiyalashuvi sharoitida yanada ko'proq kuchga ega bo'ladi.

Xalqaro kapitalning asosiy shakllari sifatida rasmiy kapital, xususiy kapital, qisqa, o'rta va uzoq muddatli, tadbirkorlik kapitali, ssuda kapitali, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalarni keltirib o'tish mumkin.


Bir mamlakat doirasida yoki davlatlararo kapital oqimini tartibga solishda 5 turdagi investitsion rejim farqlanadi. Ular quyidagilar:

---

<sup>19</sup>Под редакцией Л.Н.Красавиной «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения, Москва – «Финансы и Статистика» 2012.

- Mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi;
- Milliy rejim
- Kamsitmaslik rejimi;
- Adolatli va teng huquqli rejim;
- Shaffoflik rejimi

Bu investitsion shartnomalarning tarixiy asosi standart *Mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi (MQQYR)* hisoblanadi. Uning mohiyati quyidagicha: qabul qiluvchi davlat bir mamlakat investorlariga boshqa har qanday mamlakat investorlariga nisbatan yomonroq munosabatda bo‘lmaydi. (Bu xalqaro huquqda foydalaniladigan MQQYR minimal xalqaro standarti hisoblanadi.) MQQYR investorlarga qabul qiluvchi davlatda kamsitishdan himoya qilishni kafolatlaydi, va shu tariqa, turli mamlakatlar investorlari uchun teng imkoniyatlar yaratishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.



**1.3-rasm. Investitsion rejimlar<sup>20</sup>**

<sup>20</sup> Д.Р. Вахитов, Г.Н. Белицкая, Г.Т. Гафурова “Финансы” учебно-практическое пособие. – Казань, Институт экономики, управления и права, 2013г, 158 стр.

Amalda ushbu rejimning xalqaro huquq doirasida talab qilinadigan minimal standartga nisbatan kengroq talqini qo‘llaniladi, shuningdek, rejim quyidagi istisnolarga ham ega:

- Umumiy rejadan istisno (masalan, milliy xavfsizlik xususida);
- O‘zaro kelishuvlarga asoslangan istisnolar (masalan, soliqqa tortish, intellektual mulkni muhofaza qilish masalalari);
- Bir tomonlama tartibda qo‘llaniladigan alohida istisnolar.

MQQYRdan istisno sifatida bojxona ittifoqi, erkin savdo hududi, iqtisodiy ittifoq to‘g‘risidagi har qanday bitim, shuningdek ikki tomonlama soliqqa tortishdan saqlanish, chegara yaqinidagi savdoni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi bitimlar istisno hisoblanadi.

Umuman olganda, garchi xalqaro investitsion bitimlar MQQYaRdan istisnolardan foydalanish imkonini bersa ham, amalda mamlakatlar ushbu imkoniyatdan kam foydalanadi. Shu tariqa, qabul qiluvchi davlat MQQYaR doirasida turli mamlakatlardan bo‘lgan investorlarni kiritish va(yoki) ular faoliyatini moslashuvchan tartibga solish mumkin, bu ushbu rejimdan kamsituvchi foydalanish uchun asos yaratadi (istisnolar bir xorijiy investorlarga nisbatan qo‘llanilgan, boshqalarga nisbatan qo‘llanilmaganda).

Qoidaga ko‘ra, MQQYaR xorijiy investorlarni kiritish bosqichida amal qiladi.

*Milliy rejim* – so‘ngi yillarda foydalanilayotgan eng muhim investitsion rejim hisoblanadi. U qabul qiluvchi davlatning xorijiy investorlar faoliyatiga munosabatini belgilaydi va ko‘pincha investorning faoliyat yuritish bosqichida qo‘llaniladi. Ayni paytda ushbu standart rejimni o‘rnatish murakkabroq, chunki u qabul qiluvchi davlatning nozik iqtisodiy-siyosiy masalalari bilan bog‘langan. Haqiqatda milliy rejim hech qachon cheklovlarsiz berilmaydi, ayniqsa gap investitsiyalarning ishlashi to‘g‘risida ketayotganda. Boshqacha aytganda, amalda milliy va xorijiy investorlar uchun teng raqobatchilik imkoniyatlari istisnolarsiz yaratilmaydi<sup>21</sup>.

---

<sup>21</sup> Под редакцией Л.Н.Красавиной «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения, Москва – «Финансы и Статистика» 2012.

Milliy rejim – xorijiy investorlarga milliy tadbirkorlarnikidan kam bo'lmagan rejimni yaratishdir (milliy rejimning minimal xalqaro standarti). Qoidaga ko'ra, milliy rejim xorijiy investitsiyalarni ishlash bosiqichiga tegishli. Bu investorni kiritish sharti sifatida mahalliy resurslardan (komponentlar, ishchi kuchi) foydalanish xususidagi talablarni bekor qilish tufayli investitsion erkinlashtirishga olib keladi. Amalda milliy rejimni qo'llash istisnolar asosida uning ko'lamlarini cheklashni taqozo etadi. Umumiy istisnolar aholi salomatligi, xavfsizlik, ijtimoiy ahloq, milliy xavfsizlikka tegishli bo'ladi, biroq so'ngilari barcha investitsion bitimlarda, ayniqsa ikki tomonlama bitimlarda doimo yuqoridagilar kiritiladi.

Masalan, Meksika qonunchiligida quyidagi sohalarda milliy rejimdan istisnolar ko'zda tutilgan:

- strategik sohalar - neft qazib olish, neftkimyo sanoati, elektroenergetika, atom energiyasi, radioaktiv materiallar ishlab chiqarish, pochta, radio, telegraf, pul banknotalari chiqarish, tangalar chiqarish, portlar, aeroportlar, jumladan vertolet aeroportlarini nazorat qilish va boshqarish;

- faqat meksikalik yuridik va jismoniy shaxslar-rezidentlarga berilgan sohalar, ya'ni ichki quruqlikda yo'lovchi tashish, turizm, benzin va boshqa neft mahsulotlari, shuningdek gaz bilan chakana savdo qilish;

- xorijiy investitsiyalar radioeshittirishlar va boshqa radio va telexizmatlar (kabel televideniyasidan tashqari), kredit va bank institutlari, qonunchilikda belgilangan professional va texnik xizmatlarni ko'rsatish singari sohalarga (bevosita, piramidalar sxemalari, shuningdek, norezidentlarga nazorat qilish yoki mulkda ishtirok etish huquqini beruvchi boshqa har qanday mexanizm orqali) kiritilmaydi.

Xitoy milliy rejimida quyidagi istisnolar ko'zda tutilgan:

- xorijiy investitsiyalarning quyidagi sohalarga kirishi cheklangan: ishlab chiqilgan yoki iqtisodiyotga joriy qilingan va ishlab chiqarish bazasida mavjud texnologiyalardan foydalanish; davlat monopoliyasiga kiruvchi sohalar; mineral resurslardan foydalanish; davlat tomonidan rejalashtiriladigan va tartibga solinadigan sohalar;

- quyidagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar taqiqlangan: milliy xavfsizlikka, ijtimoiy manfaatlarga tahdid soluvchi; ekologiyaga zarar yetkazuvchi, tabiiy resurslarga tahdid soluvchi va aholi salomatligiga zarar yetkazuvchi loyihalar; Xitoy texnologiyasidan foydalangan holda tovarlar ishlab chiqarish loyihalari;

- xorijiy investitsiyalarning quyidagi sohalarga kirishi cheklangan: ijtimoiy foydalanish uchun asosiy suv ta'minoti loyihalarini qurish va boshqarish; metro, portlar, fuqarolik portlari qurish; ko'mir qazib olish; atom elektr stansiyalari qurish; kemasozlik; tashqi savdo; noshirlik ishi; audiovizual mahsulotlar ishlab chiqarish, e'lon qilish va tarqatish; ichki savdo; aviataashishlar; don ishlab chiqarish; paxta yetishtirish.

*Kamsitmaslik rejimi.* Investitsion kamsitmaslik rejimi qabul qiluvchi davlatdan barcha xorijiy investorlarga nisbatan keng ma'noda kamsitmaydigan munosabatni qabul qilishni talab qiladi. Shuni hisobga olganda milliy rejim kamsitmaydigan hisoblanadi, MQQYaR esa xorijiy investorlarni kamsitishi mumkin. Investitsion xatar darajasi yuqori bo'lgan qabul qiluvchi davlatlar kamsitmaslik rejimi doirasida investorga uning nuqtai nazarida maqbul rejimni – milliy yoki MQQYRni tanlash huquqini berishi mumkin. Masalan, Rossiya tomonidan 90-yillarda imzolangan ko'pgina investitsion bitimlar shunday xarakterga ega.

*Adolatli va teng huquqli rejim*<sup>22</sup>. Keyingi o'n yilliklarda adolatli va teng huquqli rejimdan foydalanish amaliyoti kengaydi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ushbu rejim ko'pgina ko'p tomonlama loyihalarda (masalan, Xalqaro savdo tashkilotini yaratish loyihasida, 1947 yilda AQShning salbiy pozitsiya tufayli imzolanmagan), keyingi yigirma yilda ikki tomonlama investitsion bitimlarda qayd etilgan.

Adolatli va teng huquqli rejim xorijiy investor va qabul qiluvchi davlat hukumati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni baholash mezoni hisoblanadi. U xorijiy

---

<sup>22</sup> Д.Р. Вахитов, Г.Н. Белицкая, Г.Т. Гафурова “Финансы” учебно-практическое пособие. – Казань, Институт экономики, управления и права, 2013г, 158 стр.

kapitalni adolatli va teng huquqli shartlar asosida kiritishga tayyorlikni ko'rsatadi. Ayni paytda jahon amaliyotida mazkur rejimning yagona ta'rifi yuzaga kelmagan.

Adolatli va teng huquqli rejim quyidagicha talqin qilinishi mumkin:

- qabul qiluvchi davlat imtiyozlarga ega xorijiy investorlarga teng va adolatli munosabatda bo'ladi
- qabul qiluvchi mamlakat imtiyozlarga ega xorijiy investorlarga nisbatan minimal xalqaro standartni qo'llaydi.

Quyidagi misoldan shaffoflik rejimining ahamiyatini ko'rish mumkin:

«Pricewaterhouse & Coopers» kompaniyasi har yili 35 mamlakat bozorlar shaffofligini o'rganadi.

Shaffof emaslik indeksini (Opacity Index) tuzishda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- C - korrupsiya, u davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari buzilishlariga olib keladi;
- L – qonunchilik – tijorat qonunchiligi va boshqa mulk qonunchiligi amorf bo'lishi mumkin;
- E – iqtisodiy soha – moliya, emissiya va soliqqa tortish hamda ularning oldindan aytib bo'lmaydigan xarakteri bilan bog'liq barcha narsalar;
- A – moliyaviy hisobot sohasi – aniq moliyaviy ma'lumotlarni to'plash va taqdim etish mexanizmlarining zaifligi;
- R – biznesni davlat tomonidan tartibga solish (bu yerda choralarning ketma-ketligi muhim).

1.1-jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatlar reytingi 5 ta ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha qiymat olinganligini ko'rish mumkin. Bunda eng past ko'rsatkich – eng yaxshi hisoblanadi.

Birinchi ko'rsatkich – bu C korrupsiya bo'lib, bunda mamlakatda korrupsiyaning hukumat sektoriga ta'sir darajasini ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, Singapur bu ko'rsatkich bo'yicha eng yaxshi holatga egadir. Undan keyingi o'rinlarda Yaponiya, AQSH, Gonkong davlatlari kelishmoqda.

Opacity indeksi bo'yicha mamlakatlar reytingi<sup>23</sup>

№	Mamlakat	C	L	E	A	R	O'rtacha
1	Singapur	13	32	42	38	23	29
2	AQSH	25	37	42	25	48	36
3	Chili	30	32	52	28	36	36
4	Gonkong	25	55	49	53	42	45
5	Italiya	28	57	73	26	56	48
6	Meksika	42	58	57	29	52	48
7	Vengriya	37	48	53	65	47	50
8	Yaponiya	22	72	72	81	53	60
9	Argentina	56	63	68	49	67	61
10	Tayvan	45	70	71	56	61	61
11	Polsha	56	61	77	75	72	64
12	Chexiya	57	97	62	77	62	71
13	Turkiya	51	72	87	80	81	74
14	Indoneziya	70	86	82	68	69	75
15	Rossiya	78	84	90	81	84	84

Ikkinchi ko'rsatkich – bu L qonunchilik tizimining rivojlanganligini ko'rsatuvchi ko'rsatkich bo'lib, unga ko'ra eng yaxshi ko'rsatkich Singapur va Chiliga tegishli. Ulardan keyingi o'rinlarda AQSH va Vengriya bo'lib, ularning ko'rsatkichi mos ravishda 37 va 48 teng.

Keyingi ko'rsatkich – bu E iqtisodiy soha ko'rsatkichi bo'lib, iqtisodiy sohada bo'ladigan oldindan aytib bo'lmaydigan holatlar yuzaga kelishini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich AQSH va Singapurda bir xil bo'lib, ular 42 ga teng. Ulardan keyingi o'rinlarda Gonkong va Chili 49 va 52 ko'rsatkichlar bilan qayd etilgan.

<sup>23</sup> [www.PwC.org](http://www.PwC.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yana bir ko'rsatkich – bu A, ya'ni moliyaviy hisobot sohasi bo'lib, aniq moliyaviy hisobot olish darajasini belgilaydi. Bu ko'rsatkich bo'yicha AQSH, Meksika, Chili davlatlar yuqori o'ringa ega.

Eng so'nggi ko'rsatkich – bu R, ya'ni biznes yuritish davlat tomonidan qanchalik darajada erkinlashtirilgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha eng yaxshi holat bu Singapurda bo'lib, u 23 ga teng. Chili, Gonkong, Vengriya, AQSH Singapurdan keyingi o'rinlarni band etgan.

Jami ko'rsatkichlarning o'rtachasiga e'tibor beradigan bo'lsak, Singapurda shaffoflik darajasi eng yaxshi mamlakat hisoblanadi va uning ko'rsatkichi 29ga teng. AQSH va Chili Singapurdan keyin 2-3-o'rinlarda qayd etilgan bo'lib, ular bir xil 36ga teng ko'rsatkichga ega..

Xorijiy kapital kirib kelishiga cheklovlar qo'yish capital oqimini boshqarishda qo'llaniladigan yana bir usullardan biridir. Xorijiy kapital, asosan, bevosita xorijiy investitsiyalarga cheklovlar qo'yish quyidagi sabablar bilan asoslanadi:

- Qabul qiluvchi davlatlarning o'z iqtisodiyotining xorijliklar tomonidan nazorat qilinishidan xavotirlanishi;
- Milliy boylikning bir qismini yo'qotishdan xavotirlanish;
- Mahalliy fuqarolarning kompaniyani boshqarishda ishtirok etishiga, ularning bandligi oshishiga ko'maklashishga intilish;
- Texnologiyalar va boshqaruv tajribasi kirib kelishini sifat jihatidan nazorat qilish istagi.

Xorijiy kapital uchun cheklovlarni 2ta turga ajratish mumkin:

1. Kapital hisobraqamlari bo'yicha cheklovlar (investitsiyalarga cheklovlar)
2. Joriy hisobraqamlar bo'yicha cheklovlarga (valuta cheklovlari)

*Kapital hisobraqamlari bo'yicha cheklovlar.* Ularga bevosita xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalarni tartibga solish choralari, rezidentlar va norezidentlar tomonidan qarzlarni olinishi va berilishi, depozit omonatlar bo'yicha bitimlar kiradi. Ushbu guruhlar har biri bo'yicha quyidagi davlat nazorati choralari ajratiladi:



- rezidentlarning mamlakat ichidagi va norezidentlarning chet ellardagi bevosita xorijiy investisiyani cheklash; foyda va kapitalni repatriatsiya qilishga oid cheklovlar; mulk tuzilmasi bilan bog‘liq cheklovlar;

- rezidentlarning mamlakat ichidagi va norezidentlarning chet ellardagi qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va sotib olishlarini tartibga solish ko‘rinishida portfel investitsiyalar cheklovlari; kapital daromadlaridan dividendlarni o‘tkazishga, shuningdek rezidentlar va norezidentlar o‘rtasida daromadlarni o‘tkazishga cheklovlar;

- tashqi qarz operatsiyalarining mutlaq maksimumini o‘rnatish yoki rezidentlar tomonidan qarz majburiyatlarini sotib olishga soliqlar joriy qilish shaklida tartibga solish; savdo bilan mashg‘ul kompaniyalar uchun maxsus istisnolar;

- rezidentlar va norezidentlarga tegishli xorijiy valutadagi depozit hisobraqamlari bo‘yicha cheklovlar yoki chet ellarda rezidentlarga yoki mamlakat ichida norezidentlarga tegishli milliy valutadagi depozitlarga cheklovlar;

- boshqa cheklovlar, jumladan, ko‘chmas mulk va ishchi kuchi migratsiyasiga cheklovlar.

### **1.3 Xalqaro moliya operatsiyalarida xalqaro moliya institutlarining o‘rni**

Globalashuv sharoitida xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda xalqaro moliya tashkilotlarining o‘rni juda ham muhimdir. Xalqaro moliya tashkilotlari o‘z faoliyati doirasida mamlakatlar o‘rtasida amalga oshiriladigan moliya operatsiyalarida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi yoki tartibga soluvchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro valuta-kredit va moliya munosabatlarining tashkiliy tuzilmasi o‘ziga ko‘plab xalqaro tashkilotlarni qamrab oladi. Ulardan ba‘zilari ko‘pgina vakolatlariga hamda yuqori miqdordagi moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan holda xalqaro valuta-kredit va moliya munosabatlarini tartibga solishda ishtirok etadi. Boshqalari esa hukumatlararo muhokama etish uchun forumlar tashkil etish hamda valuta-kredit va moliya siyosati bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Xalqaro moliya tashkilotlari o'zida jahon iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash uchun moliya va valuta-kredit munosabatlarini tartibga solish maqsadlarida davlatlararo kelishuv asosida tashkil etilgan xalqaro tashkilotlarni ifodalaydi<sup>24</sup>.

Xalqaro moliya tashkilotlarining yuzaga kelishiga asosan jahon xo'jaligida globallasuv jarayonlarining rivojlanishi hamda xalqaro moliya bozorlaridagi va jahon valuta tizimidagi beqarorlikning kuchayishi sabab bo'ldi. Ular asosan ikkinchi jahon urushidan keyin tashkil topgan va hozirgi vaqtda mamlakatlarning valuta-kredit va moliya munosabatlari sohasidagi hamkorligini rivojlantirishda hamda ushbu munosabatlarni davlatlararo darajada tartibga solishda muhim rol o'ynamoqda.

Xalqaro moliya tashkilotlariga Xalqaro Valuta fondi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro hisobkitoblar banki, Osiyo, Amerika, Afrika mintaqaviy rivojlanish banklari va boshqalar kiradi.

Xalqaro moliya tashkilotlarining faoliyati jahon xo'jaligining barqarorligiga erishishga hamda valuta-moliya sohasidagi munosabatlarning uzluksizligini ta'minlashga yordam beradi. Eng avvalo, bunga bo'lgan zaruriyat davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ko'lamining ortib borishi, shuningdek, ularning o'zgaruvchan xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ular mamlakatlar va davlatlar o'rtasida hamkorlikni tashkil etish uchun forum sifatida xizmat qilishga ham yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, jahon xo'jaligining muhim muammolari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va rivojlanish tendensiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil etish hamda o'rganish sohasida xalqaro valuta-moliya tashkilotlarining ahamiyati ortib bormoqda.

Xalqaro moliya tashkilotlarining vujudga kelishiga va faoliyatining rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

---

<sup>24</sup> A.Vahobov, U.Burxonov, N.Jumayev, "Xalqaro moliya munosabatlari", Toshkent moliya instituti, T: 2013, 293 bet

- xo'jalik hayoti baynalminallashuvining kuchayishi, shuningdek, milliy chegaralardan tashqariga chiquvchi transmilliy korporatsiyalar va transmilliy banklarning tashkil topishi;

- jahon xo'jaligida moliyaviy munosabatlarni xalqaro tartibga solishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi;

- jahon valuta tizimi, xalqaro valuta-kredit, qimmatbaho qog'ozlar va oltin bozorlaridagi yuzaga keladigan muammolarni hamkorlikda hal qilish zaruriyatining ortib borishi.

Xalqaro valuta-kredit va moliya tashkilotlari tomonidan bajariladigan asosiy funksiyalarga quyidagilar kiradi<sup>25</sup>:

*1. Axborot funksiyasi.*

Xalqaro moliya tashkilotlari jahon xo'jaligi rivojlanishining umumiy tendensiyalari hamda biror-bir davlatning iqtisodiy holati to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan axborot markazi rolini bajaradi. Xalqaro valuta-kredit tashkilotlari o'tkazilgan xalqaro konferensiyalar, yig'ilishlar, tadqiqotlar natijalari bo'yicha statistik materiallarni nashr etib boradi.

*2. Maslahatchi funksiyasi.*

Xalqaro moliya tashkilotlari mamlakatlarning hukumatlariga valuta-kredit va moliya siyosatini o'tkazish bo'yicha maslahatlar berib boradi.

*3. Tartibga solish funksiyasi.*

Xalqaro moliya tashkilotlari xalqaro moliya munosabatlarini tartibga solish funksiyasini ham bajaradi. Jumladan, XVF to'lov balansida muammolarga ega bo'lgan mamlakatlarga vaqtinchalik moliyaviy yordam ko'rsatadi. XVF mamlakatlarga milliy valuta kursini bir maromda saqlash uchun ham bir necha bor vaqtinchalik yordam ko'rsatgan.

*4. Bashorat qilish funksiyasi.*

Xalqaro moliya tashkilotlari milliy va jahon iqtisodiyoti rivojlanishining bashoratini amalga oshiradi. Xalqaro moliya tashkilotlari universallik darajasi va

---

<sup>25</sup> J. Ataniyazov, E. Alimardonov. "Xalqaro moliya munosabatlari" – darslik – T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2014, 433 b.

maqsadlariga bog'liq holda jahon ahamiyatiga ega bo'lgan, mintaqaviy, shuningdek, faoliyati jahon xo'jaligining ma'lum bir sohasini qamrab oluvchi tashkilotlarga ajratiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakllarini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlarni tashkil etish g'oyasi 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi ta'siri natijasida yuzaga keldi.

Xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotini rivojlantirish sohasidagi muayyan masalalarni hal etish uchun a'zo mamlakatlarning moliyaviy resurslarini birlashtirish orqali tashkil etiladi. Ushbu masalalar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- xalqaro savdoni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, jahon iqtisodiyotini tartibga solish hamda barqarorlashtirish maqsadida xalqaro valuta va fond bozoridagi operatsiyalar;

- budjet taqchilligini moliyalashtirish va davlat loyihalarini amalga oshirishga kreditlar — davlatlararo kreditlar;

- xalqaro biznesga ijobiy ta'sir ko'rsatishga (masalan, infratuzilma loyihalari, informatsion texnologiyalar sohasidagi loyihalar, transport va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va boshq.) ichki loyihalar (bitta mamlakatning yoki rezidentning tijorat tashkiloti manfaatlariga bevosita daxldor bo'lgan loyihalar) sohasidagi kreditlash va investitsiya faoliyati;

Xalqaro moliya tashkilotlari quyidagi maqsadlarni ko'zlagan holda faoliyat yuritadi<sup>26</sup>:

- jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliyani barqarorlashtirish maqsadida jahon hamjamiyatida harakatlarni birlashtirish;

- valuta va moliya-kredit munosabatlarini xalqaro tartibga solishni amalga oshirish;

---

<sup>26</sup> G. Nazarova., I. Axmedov., O. Hamidov., Z. Iminov. "Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar", o'quv qo'llanma, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2011, 243 bet.

- jahon valuta va moliya-kredit siyosatining strategiya va taktikasini hamkorlikda ishlab chiqish va muvofiqlashtirish.

Xalqaro moliya tashkilotlarida mamlakatlarning qatnashish darajasi va alohida mamlakatlarning ta'siri ularning kapitaldagi ulushining miqdori bilan aniqlanadi.

Xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatining samaradorligi muayyan darajada a'zo mamlakatlarning hukumati va davlat tashkilotlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, xalqaro moliya tashkilotlarining investitsion faoliyati ko'p hollarda yirik xalqaro loyihalar bo'yicha risklarni boshqarish va sug'urtalashni amalga oshiruvchi davlat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni talab etadi.

Xalqaro Valuta fondi, XVF (ing. International Monetary Fund, IMF) Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) ixtisoslashgan tashkilotlaridan bo'lib, shtab-kvartirasi AQSHning Vashington shahrida joylashgan. 1944-yil 22-iyulda BMTning valuta-moliya masalalari bo'yicha Bretton-Vudsdagi konferensiyasida XVF bitimining asosi ishlab chiqildi. XVF tashkil topgan rasmiy sana — 1945-yil 27-dekabr bo'lib, bunda bitimning oxirgi varianti 29 ta davlat tomonidan imzolandi. XVF o'z faoliyatini 1947-yil 1-martdan Bretton-Vuds tizimining bir qismi sifatida boshladi. Shu yili Fransiya birinchi kreditni oldi. Hozirgi kunda XVF 186 davlatni birlashtirib, uning tuzilmasida 133 mamlakatdan 2500 mutaxassis ishlaydi.

XVF - a'zo davlatlar o'rtasida valuta-kredit munosabatlarini tartibga solish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valutasida qisqa va o'rta muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilotdir.

XVF Kelishuvlar moddalarining birinchi moddasiga muvofiq, uning maqsadlari qatoriga quyidagilar kiradi:

- xalqaro valutaviy muammolarni bartaraf etish borasida maslahatlar va hamjihatlik mexanizmini ta'minlovchi doimiy institut orqali xalqaro valutaviy hamkorlikni rag'batlantirish;

- xalqaro savdoning kengayishi va muvozanatli o'sishini qo'llab-quvvatlash va shu orqali bandlik hamda real daromadlarning yetarlicha yuqori darajasini ushlab turish va iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi sifatida barcha a'zo davlatlar resurslarining samaradorligini oshirishga hissa qo'shish;

- a'zo davlatlar o'rtasida joriy bitimlarga doir ko'p tomonlama to'lovlar tizimini tashkil etish va jahon savdosi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi valuta ayirboshlashdagi cheklovlarni bekor qilishga ko'maklashish;

- a'zolarning umumiy resurslari hisobidan yetarlicha xavfsiz asosda mablag' bilan ta'minlash orqali ularning ishonchini qozonish va shuning asosida ularga to'lov balansidagi nomuvofiqliklar (tartibsizliklar)ni milliy yoki xalqaro taraqqiyotga g'ov bo'ladigan chora-tadbirlarsiz to'g'rilash imkonini berish;

- yuqoridagilarga muvofiq a'zo davlatlarning xalqaro to'lovlar balanslaridagi nomuvofiqlik (muvozanatsizlik)larning davomiyligini qisqartirish va uning darajasini pasaytirish.

XVF bu taraqqiyot instituti emas, Kelishuvlar moddasiga muvofiq, qashshoq mamlakatlarda infratuzilmani shakllantirish, eksport va boshqa sektorlarni diversiflkatsiya qilish yoki ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida kreditlar ajratmaydi.

Har qanday mamlakat xoh u rivojlangan bo'lsin, xoh u sust rivojlangan, agar u kapitallar bozorida qulay shartlarda xalqaro to'lovlarni amalga oshirish va zaxiralarning muvofiq darajasini ta'minlash uchun yetarlicha moliyalashtirish manbasini topa olmasa, to'lov balansi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun moliyaviy yordam so'rab XVFga murojaat qilishi mumkin. XVF Jahon banki va boshqa taraqqiyot agentliklaridan farqli ravishda loyihalarni moliyalashtirmaydi.

XVF faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi<sup>27</sup>:

- jahon valuta tizimini nazorat qilish;
- pul siyosatidagi xalqaro hamkorlikka yordam berish;
- jahon savdosini kengaytirish;

---

<sup>27</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari bazasidan olindi.

- XVF a'zolarini kreditlash;
- valuta ayirboshlash kurslarini barqarorlashtirish;
- debitor mamlakatlarga maslahatlar berish;
- SDR chiqarish orqali likvid mablag'larni yaratish;
- iqtisodiy siyosat va texnik yordam sohasida tavsiyalar ishlab chiqish.
- xalqaro moliya statistikasi standartlarini ishlab chiqish;
- xalqaro moliya statistikasi to'plamlarini e'lon qilish.

XVF Kelishuv moddalariga muvofiq fondning vazifalari qatoriga xalqaro valuta tizimini nazorat qilish va uning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash kiradi. XVF jahon valuta tizimi ustidan, jumladan, a'zo mamlakatlarning valuta kursi sohasidagi siyosati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

XVF nazorat funksiyasini amalga oshirish bilan birgalikda mamlakatlarning umumiy iqtisodiy holati va uning iqtisodiy siyosat sohasidagi strategiyasi bo'yicha atroflicha tahlil o'tkazadi. XVF nuqtayi nazariga ko'ra mamlakatning samarali va izchil iqtisodiy siyosati milliy valuta ayirboshlash kurslarini va jahon valuta tizimini barqarorlashtirishga, jahon xo'jaligida iqtisodiy o'sishni ta'minlashga imkon yaratadi.

XVF ushbu sohada mamlakatlarning o'ziga tegishli bo'lgan majburiyatlarini bajarishini nazorat qiladi. Bu majburiyatlarga narxlar barqarorligini saqlagan holda yuqori bandlik darajasini ushlab turuvchi va iqtisodiy o'sishga yordam beruvchi moliyaviy va iqtisodiy siyosat o'tkazish.

XVF nazoratni amalga oshirish uchun davriy va maxsus maslahatlarni tatbiq etadi. Davriy maslahatlar barcha a'zo mamlakatlarga har yilda o'tkaziladi, bunda XVF a'zo mamlakatlarning umumiy iqtisodiy holati va valuta siyosati to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Agarda biror-bir a'zo mamlakatda og'ir iqtisodiy vaziyat yuzaga kelgan bo'lsa yoki bunga shubha sezilsa XVF darhol undan chiqish yoki oldini olish yuzasidan tegishlicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davriy maslahatlar XVF ekspertlari guruhi tomonidan o'tkaziladi. Ular eksport va import, ish haqi darajasi, narxlar, aholi bandligi, moliyaviy bozorlar konyunkturasi, investitsiyalar hamda valuta ayirboshlash kurslarini shakllantirishga

ta'sir ko'rsatuvchi boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'playdi. Keyin esa, davlat tuzilmalarining vakillari bilan iqtisodiy siyosatni baholash maqsadida muhokama tashkil etiladi, shuningdek, o'z valutasini ayirboshlashdagi cheklovlarni bartaraf etish uchun mamlakat amalga oshirgan chora-tadbirlarning natijasi o'rganiladi.

Muhokama yakuni bo'yicha XVF ekspertlari batafsil ma'lumot tayyorlaydi va u keyinchalik Boshqaruv kengashida muhokama etiladi. Muhokama natijalari bo'yicha xulosa tayyorlanadi va mamlakat hukumatiga taqdim etiladi. Unda ko'pincha mamlakat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish bo'yicha fondning tavsiyalari o'rin oladi<sup>28</sup>.

XVF maxsus maslahatlarni jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rinda turuvchi, iqtisodiy siyosati jahon xo'jaligi faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan o'tkazadi. Maslahatning maqsadi bo'lib, jahondagi iqtisodiy vaziyatni va iqtisodiy rivojlanishning istiqbollarni baholash hisoblanadi.

### **I bob bo'yicha xulosa**

1. Xalqaro moliya doimiy o'zgaruvchan xalqaro pul tizimlarining holati va rivojlanishini, alohida mamlakatlar to'lov balan-sining o'zgarishini, xalqaro moliya bozorlari, xalqaro moliyaviy korporatsiyalar, xalqaro bank va investitsion faoliyatni namoyon etadi.

2. Xalqaro moliya operatsiyalari pul mablag'laridan foydalanish va ularni shakllantirishda vujudga keladigan tashkiliy va pul munosabatlarini boshqarishga yo'naltirilgan ma'lum bir masalani hal etishga qaratilgan aniq belgilangan ma'lum bir xatti-harakatlarni ifoda etadi.

3. Xalqaro kapital harakati sifatida mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy resurslar oqimi milliy investitsiya va jamg'arma o'rtasidagi nomutanosiblik oqibatida kelib chiqadi.

---

<sup>28</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari bazasidan olindi.



4. Xalqaro kapital harakatini tartibga solishda va rag'batlantirishda investitsion rejimlar muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Hozirgi kunda investitsion rejimlar orasida keng tarqalib borayotgan turi – bu shaffoflik rejimi.

6. Xalqaro kapital oqimini cheklashda kapital hisobraqamlari bo'yicha cheklovlar mamlakat iqtisodiyotiga kapitalning kirishi va chiqib ketishiga katta ta'sir o'tkazadi.

7. Mamlakatlararo kapital oqimi va to'lov balansini boshqarish, valuta barqarorligini ta'minlashda xalqaro moliya tashkilotlari ichida Xalqaro Valuta Fondi asosiy tashkilot hisoblanadi.

8. Xalqaro Valuta Fondi biror mamlakat og'ir iqtisodiy ahvolga tushib qolsa, ushbu holatdan chiqib ketishda o'sha mamlakatga o'z maslahatlarini beradi va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

## II BOB. XALQARO MOLIYA OPERATSIYALARINING TO'LOV BALANSIGA TA'SIRI TAHLILI

### 2.1 Xalqaro moliya operatsiyalarining to'lov balansida aks ettirilishi va uning tahlili

To'lov balansi – bu statistik hisobot bo'lib, ma'lum bir davr oralig'idagi rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi iqtisodiy operatsiyalarning summasi shaklida taqdim etiladi. To'lov balansi tovar va xizmatlar hisobini, birlamchi daromad, ikkilamchi daromad, kapital bo'yicha operatsiyalar va moliyaviy hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi. To'lov balansida ikki tomonlama yozuv tizimiga muvofiq har bir operatsiya uning kredit qismida va debet qismida bir xil summada aks ettiriladi.

**Operatsiyalar hisobining yuritilishi.** Debet va kredit bo'yicha hisobning yuritilishi hisobga olish tizimining alohida operatsiyalar darajasida amalga oshiriladi. Har bir operatsiya to'lov balansining ikki tomonida teng hajmda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan chiqim va kirim shaklida ifoda etiladi. Har bir operatsiya bo'yicha kredit va debetga mos yozuvni amalga oshiradi.

- Kredit (K) – tovar va xizmatlar eksporti, olinadigan daromadlar, aktivlar kamayishi yoki majburiyatlarning ortishi;

- Debet (D) – tovarlar va xizmatlar importi, to'lanadigan daromadlar, aktivlarning ortishi yoki majburiyatlarning kamayishi.

**Misol.** Oddiy misol keltiradigan bo'lsak, 100 sh.b. evaziga norezidentga tovar sotildi. Sotuvchi tomonidan quyidagi yozuv amalga oshiriladi:

Ekspart            100 sh.b. (K)

Naqd valuta    100 sh.b. (D – moliyaviy aktivlarning ortishi)

Faqatgina moliyaviy aktivlar o'zgarishi bo'yicha operatsiyaga misol qilib 50 sh.b. evaziga aksiyalar sotilishini keltirish mumkin. U holda sotuvchi tomonidan quyidagi yozuv amalga oshiriladi:

Kapitalda ishtirok etish    50 sh.b. (K – moliyaviy aktiv kamayishi)

Naqd valuta                    50 sh.b. (D – moliyaviy aktivning ortishi)

Majburiyat bo'yicha operatsiyaga misol qilib 70 sh.b. miqdorida qarz mablag'i olishni keltirish mumkin. U holda qarz oluvchi tomondan quyidagi yozuv amalga oshiriladi:

Qarz                70 sh.b. (K – majburiyatning ortishi)

Naqd valuta    70 sh.b. (D – moliyaviy aktivning ortishi)

Joriy operatsiyalar hisobi tovar va xizmatlar, rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi birlamchi va ikkilamchi daromadlar harakatini ifodalaydi. Joriy operatsiyalar hisobi o'zida to'lov balansining asosiy hisobvaraqlarini jamlagan.

*Tovar va xizmatlar hisobvarag'i.* Ushbu hisobvaraqa ishlab chiqarish natijasi bo'lgan obyektlar bilan operatsiyalar hisobi yuritiladi.

Ushbu hisobvaraqa diqqat markazida rezident va norezident o'rtasida bo'ladigan tovar va xizmatlar ayirboshlash operatsiyasi vaqti turadi. Bundan farqli ravishda milliy hisoblar tizimining diqqat markazida ishlab chiqarish, iste'mol, va jamg'arma kapitalning jarayonda ishlatilishi kabi boshqa jarayonlar turadi.

Ishlab chiqarish faoliyati ishlab chiqaruvchi tomonidan resurslarni (oralik mahsulot, mehnat, moddiy va nomoddiy aktivlar) tayyor mahsulot ko'rinishiga keltirish jarayoni bo'lib, boshqa institutsional birlikka yetkazib berilishi mumkin.

Tovar va xizmatlar harakati moliyaviy hisobvaraqlar, joriy operatsiyalar hisobvarag'ida yoki kapital bo'yicha hisobvaraqlarda aks etishi mumkin. Tovar va xizmatlar taqdim etilgan paytda amalga oshiriladigan obyektlar yozuvi moliyaviy hisobvaraqa aks etadi, masalan, "naqd valuta va depozitlar" moddasida. Agar egalik huquqi o'tgan paytda to'lov amalga oshirilmasa savdo krediti yoki boshqa moliyaviy instrument (masalan, veksel) rasmiylashtiriladi. Agar to'lov egalik huquqi o'tishidan avval amalga oshiriladigan bo'lsa, importchi tomonidan eksport qiluvchi tomonga avans hisoblanadi. Ba'zida tovar va xizmatlar boshqa bir moliyaviy aktiv bo'lmagan ayirboshlanadi, masalan, barter holatida o'tkazma "tovar va xizmatlar" moddasida aks etadi. Agar tovar yoki xizmat yordam yoki hadya sifatida berilsa, u joriy yoki kapital transfert moddasida aks ettiriladi.

## 2.1-jadval

### Jahon mamlakatlari tovar va xizmatlar hisobvarag'i jamlanmasi, mlrd.

#### AQSH dollarida<sup>29</sup>

Yillar	2011-yil	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
<b>Tovarlar saldosi</b>	429,2	488,9	581,9	525,1	364,2	374,0
<b>Kredit</b>	17 943,0	18 182,4	18 587,1	18 624,8	16 201,6	15 716,7
<b>Debet</b>	17 513,8	17 693,4	18 005,2	18 099,7	15 837,4	15 342,7
<b>Xizmatlar saldosi</b>	141,1	113,5	130,8	107,9	147,5	130,0
<b>Kredit</b>	4 355,9	4 469,1	4 755,6	5 093,8	4 833,1	4 864,3
<b>Debet</b>	4 214,8	4 355,6	4 624,8	4 985,9	4 685,6	4 734,2

Yuqoridagi jadvalda jahon mamlakatlarining tovar va xizmatlar eksporti va importi hisobvarag'i saldosining 2011-2016-yillardagi o'zgarishi keltirilgan.

2011-2016-yillarda 2011-yilda tovarlar eksporti 17 943,0 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, eng ko'p eksport (18 624,8 mlrd. AQSH dollari) 2014-yilda kuzatilgan. Tovarlarining eng ko'p importi ham 2014-yilda kuzatilgan bo'lib, 18099,7 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan. Tovarlar eksport-importining eng yirik saldosini 581,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2013-yilda kuzatilgan.

Xizmatlar sohasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu sohada eng ko'p eksport 2014-yilda qilingan bo'lib, 5 093,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Xizmatlar eksport-importining eng katta saldosini 2015-yilda bo'lgan va 147,5 mlrd. AQSH dollariga yetgan.

Tovarlarining eksporti yoki importi to'lov balansi metodologiyasi bo'yicha iqtisodiy egalik huquqining rezident va norezident o'rtasida almashishi bo'lib, quyidagi aniq kategoriyalarga kirmasligi kerak: xorij bilan qayta savdo shaklidagi tovarlar, nomonetar oltin, sayohat komponentlari, qurilish va boshqa kategoriyalarga tegishli bo'lmagan davlat tovarlari va xizmatlari.

<sup>29</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tovar va xizmatlar hisobvarag'ida tovarlarning xalqaro savdo statistikasi tovarlar eksporti yoki importi bo'yicha ma'lumotlarning asosiy manbasi hisoblanadi.

Tovarlar eksporti va importi o'z ichiga oladigan moddalar:

- Joriy muomalada bo'lmagan va qimmatli qog'ozlar muomalasiga kiritilmagan banknota va tangalar. Ular birja tovarlari sifatida baholanadi va nominal qiymati bo'yicha baholanmaydi;

- Elektr energiya, gaz va suv. Biroq ularni o'tkazish, taqsimlash va yetkazib berish to'lovlari transport va boshqa xizmatlar moddasida aks ettiriladi;

- Buyurtma qilinmagan(buyurtmachisi mavjud bo'lmagan), qadoqlangan dasturiy ta'minot, shuningdek, muddatsiz litsenziyasi bo'lmagan saqlash qurilmalaridagi audio va video yozuvlar tovarlar eksporti va importi tarkibiga kiradi;

- Portlarda yetkazib beruvchilar tomonidan sotib olinadigan tovarlar. Rezident sotuvchilar tomonidan norezident yetkazib beruvchilarga yoqilg'i, ehtiyot qismlar kabi sotiladigan tovarlar ham eksport va import moddasining eksport qismiga tegishlidir;

- Ijarachi tomonidan moliyaviy lizing asosida sotib olingan tovar. Bunda ijarachi mulkning iqtisodiy egasi bo'lib, yuridik egalik huquqi ijaraga beruvchida ijara muddati tugagunga qadar saqlanadi;

- Xorijga egalik huquqsiz yuborilgan, lekin oxir-oqibat sotilgan tovarlar. Xorijga saqlash uchun, ta'mirlash uchun, qayta ishlash maqsadida mulkiy huquq o'zgartirilmasdan yuborilgan tovarlar;

- Xorijga ijaraga berish yoki vaqtinchalik foydalanish, ko'rgazma uchun olib kelingan, lekin sotib yuborilgan texnikalar;

- Noqonuniy tovarlar;

- Hadya va sovg'alar;

- Pochta o'tkazmalari, agar mulkiy huquq o'zgarsa;

- Tovar shaklidagi gumanitar yordam;

- To'lov amalga oshirilmaydigan, Grant, ssuda, qarz hisobiga moliyalashtiriladigan tovarlar;

- Mulkiy egalik huquqi almashadigan boshqa har qanday turdagi tovarlar.

Eksport va import tarkibiga kiruvchi operatsiyalar tovarga egalik huquqi o'tkazilgan paytda aks ettirilishi lozim. Eksport va import qiluvchilar o'rtasidagi hisob-kitob vaqti aks ettirilishining maksimal yaqinligiga moliyaviy hisobraqam orqali o'tkazma bilan egalik huquqi o'tkazilgan payt mos kelganda erishiladi. Eksport va importning qiymati yagona baholash punktida bozor qiymatini baholash prinsiplaridan kelib chiqib baholanadi. Yagona baholash punkti bu mamlakatning bojxona chegarasi hisoblanadi.

*Birlamchi daromadlar hisobi.* Birlamchi daromadlar hisobi rezident va norezident institutsional birliklar o'rtasidagi birlamchi daromadlar oqimini ifodalaydi. Milliy hisoblar tizimida daromadlar taqsimlanishi ikki hisobvaraqa aks ettiriladi: daromadlarni shakllantirish hisobvarag'i (bunda ishlab chiqarish jarayoni natijasida yuzaga kelgan birlamchi daromad aks ettiriladi), birlamchi daromadlarni taqsimlash hisobvarag'i (bunda mehnat, moliyaviy aktivlar, tabiiy resurslar taqdim etgan institutsional birliklar o'rtasida taqsimlanadigan birlamchi daromadlar aks ettiriladi). Statistika esa barcha birlamchi daromadlar oqimi birlamchi daromadlarni taqsimlash hisobvarag'i bilan bog'liq.

Kredit tomonda o'tkazmalarda statistikani tuzayotgan mamlakatga keluvchi birlamchi daromad aks ettirilsa, debet tomonda to'lanishi lozim bo'lgan birlamchi daromadlar ifodalanadi. Birlamchi daromadlar saldosi mamlakatga keluvchi sof birlamchi daromadni ko'rsatadi va to'lanadigan birlamchi daromadlar chiqarib tashlangandan keyingi summani o'zida aks ettiradi.

Birlamchi daromad institutsional birliklarning ishlab chiqarish jarayoniga kiritgan mablag'idan olgan foydani yoki moliyaviy aktivlar taqdim etish va tabiiy resurslarni boshqa institutsional birliklarga ijaraga berishdan olgan foydani o'z ichiga oladi. Birlamchi daromadning ikki turi farqlanadi:

1. Ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan daromad. Mehnatga haq to'lash ishlab chiqarish jarayonida mehnat resurslariga kiritilgan mablag'larni aks ettiradi. Mahsulot va ishlab chiqarishga soliq va subsidiyalar ham ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan daromadlar hisoblanadi.

2. Moliyaviy aktivlar va boshqa noishlab chiqarish aktivlarining mulkiy huquqi bilan bog'liq daromadlar. Mulkiy daromadlar moliyaviy aktivlarni taqdim etish va tabiiy resurslarni ijaraga berishdan olingan daromadlarni o'z ichiga oladi. Investitsion daromadlar moliyaviy aktivlarni taqdim etish bilan bog'liq daromadlarni aks ettiradi; bunday daromadlar o'z ichiga kvazikorporatsiyalar daromadlaridan o'tkazmalar, reinvestitsiya qilingan daromad va foizlarni oladi. Biroq hosilaviy moliyaviy instrumentlarga mulkiy huquq va hodimlar aksiyasiga opsiyonlar investitsion daromad yuzaga kelishiga olib kelmaydi.

Birlamchi daromadlarning chegaralararo oqimi Yalpi ichki mahsulot va Yalpi milliy mahsulot konsepsiyalari o'rtasida aloqani ta'minlaydi. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish konsepsiyasi bilan bog'liq bo'lib, o'z navbatida qo'shilgan qiymat shaklida ifodalanadi. Qo'shilgan qiymat shakllanishida ishtirok etuvchi omillar (mehnat, kapital, tadbirkorlik faoliyati) o'z hissasiga nisbatan ulush oladi. Ishlab chiqarish natijasida daromadni shakllantirish iqtisodiy jarayoni birlamchi daromadni taqsimlash bilan birgalikda mamlakat YaMMsida aks etadi. YaMM va YaIM o'rtasidagi farq olinadigan va to'lanadigan birlamchi daromad o'rtasidagi farqqa teng bo'lib, odatda, bu sof tashqi daromad deyiladi. Norezidentlarga taqdim etiladigan mehnat, moliyaviy aktivlar va tabiiy resurslardan keladigan daromadlar olinadigan (debtor qarzdorlik) birlamchi daromadlar jumlasiga kiradi. O'z navbatida, mehnat, moliyaviy aktivlar, tabiiy resurslar norezidentlarga tegishli bo'lsa, ulardan foydalanish bo'yicha to'lovlar norezidentlarga to'lanadigan (kreditor qarzdorlik) daromadlar hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy faoliyat statistikasida birlamchi daromad quyidagi turlarga ajratiladi:

- a) Mehnatga haq to'lash;
- b) Dividendlar;
- c) Reinvestitsiya qilingan daromadlar;
- d) Foizlar;
- e) Pensiya va sug'urta polisi egalari va standart kafolatlarga taalluqli investitsion daromadlar;

f) Renta;

g) Ishlab chiqarishga va mahsulotlarga subsidiya va soliqlar.

Mehnatga haq to'lash ishlab chiqarish jarayoniga tashkilot bilan ish beruvchi va ishchi munosabatida bo'lgan jismoniy shaxs tomonidan qo'shilgan mehnatiga rag'batni ifodalaydi. Xalqaro iqtisodiy faoliyat statistikasida mehnatga haq to'lash ish beruvchi va ishchi har xil rezident vakillari bo'lgandagina amalga oshadi. Institutsional birlik-ishlab chiqaruvchi rezident hisoblangan mamlakatda mehnatga haq to'lash o'zida hisobot davrida bajarilgan ish evaziga norezident hodim (ishchi)ga pul yoki natura shaklida to'langan haqni ifodalaydi va aksincha, ya'ni rezident hodim (ishchi)ga norezident institutsional birlik tomonidan bajarilgan ish evaziga to'langan haq.

Hodimlarga mehnat uchun haq to'lash 3 ta asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. Pul shaklidagi ish haqi
2. Natura shaklidagi ish haqi
3. Ish beruvchining ijtimoiy ehtiyojlar uchun chegirmalari

*Pul ko'rinishidagi mehnat haqi.* Bajarilgan ish uchun pul shaklidagi mehnat haqi soliqlar chiqarib tashlangunga qadar bo'lgan pul (yoki to'lov vositasi vazifasini bajaradigan har qanday moliyaviy instrument) va hodimlarning ijtimoiy sug'urta dasturiga ushlanmalardan (ikkilamchi daromad hisobida aks ettiriladi) iborat. Bu kategoriyaga asosiy ish haqi; kechki smena uchun to'lov; dam olish kunlari ishlagani uchun to'lov; ustama; bonuslar; yillik qo'shimcha to'lovlar; 13 oylik; yo'lkira uchun to'lov; bayram kunlari uchun to'lovlar; turar joy uchun nafaqalarni kiritish mumkin.

*Natura ko'rinishidagi mehnat haqi.* Hodimlar (ishchilar) tomonidan bajarilgan mehnat haqi uchun tovarlar, xizmatlar, foizlar, aksiyalar ko'rinishida to'lanishi natura ko'rinishidagi ish haqi hisoblanadi. Masalan, oziq-ovqat, yashash uchun uy-joy, hodim (ishchi) va uning oila a'zolari sport bilan shug'ullanishi, dam olishi yoki mehnat ta'tili uchun joy taqdim etish, ish joyiga borib kelishi uchun xizmat mashinasi berish, ish beruvchining o'z ishlab chiqarish jarayonining natijasi bo'lgan tovar va xizmatlar ko'rsatish, qo'shimcha bonus aksiyalar berish va h.k. Natura shaklidagi to'lovlar bozor narxida baholanishi kerak. Tovar va xizmatlar



bepul yoki pasaytirilgan narxda ko'rsatilishi mumkin. Masalan, hodim qarz olganda uni pastroq foizda yoki foizsiz berish mumkin. Bu holatda haqiqatdagi foiz stavkasi va bozor foiz stavkasi o'rtasidagi farq natura shaklidagi to'lov sifatida qabul qilinadi.

*Ish beruvchining ijtimoiy ehtiyojlar uchun chegirmalari* tarkibiga ish beruvchi tomonidan ijtimoiy sug'urta jamg'armalariga yoki boshqa, hodimlarga ijtimoiy nafaqalar taqdim etish maqsadida mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ta'minot dasturlariga o'tkazmalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ta'minot dasturlari davlat boshqaruv sektori tomonidan boshqariladi; qolgan boshqa mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ta'minot dasturlari ish beruvchi tomonidan yoki sug'urta kompaniyasi tomonidan boshqarilishi mumkin. Ijtimoiy nafaqalar tarkibiga ish beruvchi tomonidan chegirib qolinadigan pensiya, hayot sug'urtasi, tibbiy sug'urta uchun subsidiyalar, bolalar, ta'lim uchun nafaqalar, kasallik, baxtsiz hodisa, jarohat, homiladorligi sababli ishda bo'lmagan hodimlar uchun to'lovlarni kiritish mumkin.

*Reinvestitsiya qilingan daromadlar.* Korxonada taqsimlanmagan foydasi ishlab chiqarishning sof foydasi hamda reinvestitsiya qilingunga qadar bo'lgan birlamchi va ikkilamchi daromadlar bo'yicha operatsiyalarni ko'rsatadi. Taqsimlanmagan foyda sof operatsion foyda, olinadigan birlamchi daromad, olinadigan joriy transfertlar, pensiya olish huquqidagi o'zgarishlarning yig'indisi va to'lanadigan birlamchi daromad (tashkilotning to'g'ridan to'g'ri investorlari va investitsiya fondlarining pay egalariga to'lanadigan reinvestitsiya qilingan daromadlarni hisobga olmagan holda) va to'lanadigan joriy transfertlarning ayirmasiga teng. Investitsion fond egalari va to'g'ridan-to'g'ri investorlarning daromadlarining shartli hisobi "reinvestitsiya qilingan daromadlar" hisobvarag'ida ko'rsatiladi, mos daromad oqimi esa "daromadlarni reinvestitsiya qilish" moliyaviy hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Foizlar hisoblash prinsipi bo'yicha aks ettiriladi, ya'ni vaqt o'tishi bilan so'ndirilmagan summalar uchun uzluksiz ravishda kreditorga hisoblab boriladi.

Ba'zi bir holatlarda tovar eksport qiluvchi tomon kelishuvga ko'ra import bojini to'lashga rozi bo'ladi. Bunday holatlarda bojlar tashqi iqtisodiy statistikada birlamchi daromadlar taqsimotiga kirmaydi. Buning asosiy sababi obj to'lovi import amalga oshirilayotgan paytda yuzaga keladi va bu import qiluvchi tomonning majburiyati hisoblanadi. Shu sababli uni to'lash import qiluvchi tomonning bo'ynida va bu ikki rezident o'rtasidagi operatsiyadir. O'z navbatida, eksport qiluvchi tomondan to'langan import boji tovar qiymatiga FOB (free on board) shartiga ko'ra kiritilmaydi.

*Boshqa investitsion daromadlar.* Boshqa investitsion daromadlar tarkibiga rezident va norezident insitutsional birliklar o'rtasida bo'ladigan depozitlar, ssuda va zaymlar, savdo krediti, avanslar va boshqa debitor (kreditor) qarzdorlik bo'yicha foizlar; boshqa funksional kategoriyaga xos bo'lmagan investitsion fond paylari va kapitalda ishtirok etish instrumentlari bo'yicha daromadlar; sug'urta va pensiya polisi va standart kafolat egalariga tegishli investitsion daromadlar. Taqsimlangan SDR bo'yicha to'lanadigan foizlar ham boshqa investitsion daromadlar tarkibiga kiradi. Nomonetar oltin shaklidagi ssuda bo'yicha to'lovlar ham "Boshqa investitsion daromad" moddasida aks ettirilishi kerak.

*Ikkilamchi daromadlar hisobi.* Ikkilamchi daromadlar hisobida rezidentlar va norezidentlarning joriy transfertlari bo'yicha hisobi olib boriladi. Bu hisobvaraqa turli xil transfertlarning hisobi yuritilib, mamlakatlar o'rtasida daromadlar taqsimoti jarayonida ularning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Transfertlar pul va natura shaklida amalga oshirilishi mumkin. Kapital transfertlar esa kapital transfertlar bo'yicha operatsiyalar hisobvarag'ida ifodalanadi.

Ikkilamchi daromadlarning saldosi kredit va debet tomonlarning umumiy summasi bo'lib, ikkilamchi daromadlar saldosi deb ataladi. Bundan tashqari bu hisobvaraqa so'nggida jami joriy operatsiyalarning saldosi keltirilishi mumkin bo'lib, bu hisobvaraqa jami joriy operatsiyalarning so'nggisi bo'lishi mumkin. Jami joriy operatsiyalarning saldosi muhim jamlanma iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, tashqi disbalanslikni tahlil qilish mumkin.

Transfert – bu ma’lum bir tovar, xizmat, moliyaviy aktiv yoki boshqa noishlab chiqarish aktivining boshqa bir institutsional birlikka taqdim etish bo’lib, buning evaziga boshqa iqtisodiy qiymatga ega bo’lgan obyekt olinmaydi.

Transfertlar joriy yoki kapital transfertlar bo’lishi mumkin.

*Pul o’tkazmalari.* Pul o’tkazmalari uy xo’jaliklarining xorijiy mamlakatlardan kelib tushuvchi daromadlari bo’lib, ularning xorijiy mamlakatlarga vaqtinchalik yoki butunlay ko’chib borishi sababli yuzaga keladi. Pul o’tkazmalari pullar va pul ko’rinishida bo’lmagan obyektlarni o’z ichiga olib, elektron pul o’tkazmalariga o’xshash rasmiy yoki chegara orqali norasmiy yo’naltiriladigan tovar va pul o’tkazmalaridan iborat.

## 2.2-jadval

### Jahon mamlakatlarining birlamchi va ikkilamchi daromadlari jamlanmasi, mlrd. AQSH dollarida<sup>30</sup>

Yillar	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
<b>Birlamchi daromad</b>	-47,1	-119,9	-37,4	-64,9	-43,7
<b>Kredit</b>	3 807,3	3 886,7	4 047,4	3 673,1	3 659,0
<b>Debet</b>	3 854,3	4 006,6	4 084,8	3 738,0	3 702,7
<b>Ikkilamchi daromad</b>	-139,0	-174,0	-157,8	-166,4	-165,5
<b>Kredit</b>	936,0	1 002,8	1 053,9	967,8	967,5
<b>Debet</b>	1 075,0	1 176,8	1 211,7	1 134,1	1 133,0

Yuqoridagi jadvalda mamlakatlarning birlamchi va ikkilamchi daromadlari saldosi va yillik aylanmasi keltirilgan bo’lib, birlamchi va ikkilamchi daromadlarning saldosi 2012-2016-yillarda faqatgina defitsitni tashkil etgan.

Xususan, birlamchi daromadlar kirib kelishi eng yirik ko’rsatkichga 2014-yilda erishgan bo’lib, 4047,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Birlamchi daromadlar chiqib ketishining eng yuqori ko’rsatkichi ham 2014-yilda kuzatilgan bo’lib, 4084,8 mlrd. AQSH dollarigacha yetgan. Eng yirik defitsit holati 2013-yilda 119,9 mlrd. AQSH dollari bo’lgan.

<sup>30</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ikkilamchi daromadlar hisobvarag'iga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning hajmi birlamchi daromadlar hajmidan ancha kichik ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ikkilamchi daromadlar hisobvarag'ining debet qismining eng katta hajmi 2014-yilda 1053,9 mlrd. AQSH dollariga yetgan va kredit qismi 1211,7 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Ikkilamchi daromadlar defitsiti eng yuqori ko'rsatkichga 2013-yilda yetgan bo'lib, 174 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan.

Boshqa joriy transfertlar:

a) Daromad, mulk va h.k larga nisbatan joriy soliq. Ushbu soliq tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasida odatda norezidentlar tomonidan taqdim etilgan mehnat resurslari va moliyaviy aktivlarga nisbatan solinadi. Bu soliq tarkibiga, shuningdek, norezidentlarga tegishli aktivlar kapitali qiymatining o'sishidan foydaga nisbatan soliq ham kiradi. Norezidentlar ish haqisiga hisoblangan soliq norezident tomonidan to'lanadigan soliq sifatida aks ettiriladi.

b) Ijtimoiy ehtiyojlar uchun chegirmalar. Bular uy xo'jaliklari tomonidan haqiqatda yoki shartli chegirilgan to'lovlar bo'lib, ijtimoiy nafaqalar to'lash fondini shakllantirish maqsadida ijtimoiy sug'urtalash dasturlariga yo'naltiriladi. Ijtimoiy sug'urtalash dasturlari ijtimoiy ta'minlash dasturlari (aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi hamda davlat boshqaruv organlari tomonidan shakllantiriladi, nazorat qilinadi hamda moliyalashtiriladi) va mehnat faoliyati bilan bog'liq dasturlar (jamg'ariladigan va taqsimlanadigan pensiya dasturlari)dan iborat. Ijtimoiy sug'urtalar uchun chegirmalar tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasida rezident shaxs boshqa mamlakatdagi ish faoliyati sababli ijtimoiy sug'urtalash va pensiya dasturlariga chegirmalar qilganda yoki ish beruvchi tomonidan norezident shaxs nomidan haqiqatda yoki shartli ravishda chegirmalar qilganda yuzaga keladi.

c) Ijtimoiy nafaqalar. Bular tarkibiga ijtimoiy sug'urta va pensiya dasturlari doirasida to'lanadigan nafaqalar kiradi. Kasallik, ishsizlik, turar joy va ta'limga to'lanadigan nafaqalar shular jumlasidan va ular natura shaklida bo'lishi ham mumkin.

d) Sug'urta (hayot sug'urtasi bundan mustasno) va standart kafolatlar bo'yicha sof mukofotlar.

e) Sug'urta to'lovlari (hayot sug'urtasi bundan mustasno) va standart kafolatlar bo'yicha talablar.

f) Xalqaro hamkorlik doirasidagi joriy operatsiyalar.

## 2.3-jadval

### Jahon mamlakatlari moliyaviy hisobvaraqlar jamlanmasi, mlrd. AQSH dollarida<sup>31</sup>

Yillar	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
<b>Moliyaviy hisobvaraqlar saldos</b>	72,7	286,0	385,0	171,9	85,1
<b>Sof to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar</b>	-354,9	-310,5	-181,3	-247,9	-253,0
<b>Aktiv</b>	2 120,8	2 262,2	1 746,2	2 594,8	1 954,3
<b>Majburiyat</b>	2 475,7	2 572,7	1 927,4	2 842,6	2 207,3
<b>Sof portfel investitsiya</b>	-447,7	-518,3	-249,9	41,6	262,2
<b>Aktiv</b>	1 550,7	1 555,8	2 566,8	1 831,4	1 188,3
<b>Majburiyat</b>	1 998,4	2 074,2	2 816,7	1 789,8	926,1
<b>Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (zaxiralardan tashqari) va hodimlar aksiyasiga opsiyonlar</b>	-73,9	45,4	-4,6	37,4	67,1
<b>Aktiv</b>	-589,9	-767,1	-579,3	-348,5	-853,0
<b>Majburiyat</b>	-516,0	-812,5	-574,7	-385,9	-920,1
<b>Sof boshqa investitsiyalar</b>	225,6	318,4	580,7	596,6	300,0
<b>Aktiv</b>	505,2	513,1	1 654,4	-27,4	1 573,4
<b>Majburiyat</b>	279,6	194,6	1 073,7	-624,0	1 273,4
<b>Zaxira aktivlar</b>	723,6	751,0	240,1	-255,8	-291,0

2.3-jadvalda jahon mamlakatlarning moliyaviy hisobvaraqlari jamlanmasining 2012-2016-yillardagi o'zgarishi keltirilgan. Moliyaviy hisobvaraqlarning umumiy saldos keltirilgan yillarda faqatgina ijobiy saldoni ko'rsatib o'zining eng yuqori nuqtasiga 2014-yilda erishgan bo'lib, 385 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan.

Moliyaviy hisobvaraqlar tarkibida sof to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 2012-2016-yillarda faqatgina manfiy saldoga ega bo'lgan bo'lib, eng yirik salbiy saldo 2012-yilda kuzatilgan. Sof portfel investitsiyalar 2012-yilda 447,7 mlrd.

<sup>31</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

AQSH dollariga teng bo'lgan manfiy saldogaga ega bo'lgan bo'lsa, 2016-yilga kelib, 262,2 mlrd. AQSH dollarilik ijobiy saldogaga erishgan.


Sof boshqa investitsiyalar 2014-yilda eng yirik debet aylanmaga erishgan bo'lib, 1654,4 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan. Eng yirik ijobiy saldo esa 2015-yilda kuzatilgan bo'lib, 596,6 mlrd. AQSH dollariga yetgan.

Zaxira aktivlar 2012-yilda 723,6 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan ijobiy saldoni ko'rsatgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016-yilga kelib 291,0 mlrd. AQSH dollariga teng manfiy saldogacha tushib ketgan.

*Kapital bo'yicha operatsiyalar hisobi.* Kapital bo'yicha operatsiyalar hisobi tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasida rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi olinadigan va to'lanadigan kapital transfertlar va ishlab chiqarilmaydigan nomoliyaviy aktivlarni sotib olish va sotib yuborish bo'yicha operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Noishlab chiqarish va nomoliyaviy aktivlar quyidagilardan iborat:

- ❖ Tabiiy resurslar
- ❖ Shartnomalar, ijara shartnomalari va litsenziyalar;
- ❖ Marketing aktivlari (va gudvill).



### 2.1-rasm. Jahon mamlakatlari kapital hisobvaraqlari saldosini jamlanmasi<sup>32</sup>

Yuqoridagi 2.1-rasmda jahon mamlakatlari kapital hisobvaraqlarining saldosini keltirilgan bo'lib, eng yirik ijobiy saldo 2010-yilda kuzatilgan va 75,2 mlrd. AQSH

<sup>32</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

dollarini tashkil etgan. 2015-yilda esa eng kam ijobiy saldo kuzatilgan bo'lib, 4,1 mlrd. AQSH dollarigacha tushib ketgan.

Tabiiy resurslar tarkibiga yer, mineral resurslarga huquqlar, o'rmon, suvga huquq, baliq ovlashga, havo bo'shlig'i va elektrga huquqlarni o'z ichiga oladi.

Shartnomalar, ijara shartnomalari va litsenziyalar. Bularga iqtisodiy aktiv deb tan olinadigan ijara shartnomasi, shartnomalar va litsenziyalar kiradi.

Marketing aktivlari brend nomlari, davomiy nashr nomlari, savdo belgilari, logotiplar va domen nomlaridan iborat. Ular institutsional birlikdan alohida sotilganda noishlab chiqarish va nomoliyaviy aktiv sotib olindi yoki sotildi deb aks ettiriladi.

## **2.2 Xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda qo'llaniladigan usullarning ta'siri tahlili**

To'lov balansi azaldan davlat tomonidan tartibga solinuvchi obyektlardan biri bo'lib kelgan bo'lib, bu orqali davlat bozorni tartibga soladi. Buning sabablari quyidagilar bilan izohlanadi<sup>33</sup>.

Birinchidan, to'lov balansiga notenglik xos bo'lib, ba'zi bir mamlakatlarda yirik defitsit holati yuzaga kelsa, boshqa birlarida yirik saldo holati vujudga keladi. Xalqaro hisob-kitoblar balansining nobarqarorligi valuta kursiga, kapital harakatiga, iqtisodiyotning holatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, milliy valutada to'lov balansining joriy operatsiyalar deifitsitining qoplash orqali AQSH boshqa mamlakatlarning eksport inflatsiyasiga, jahon bozoridagi ortiqcha dollarning shakllanishiga sabab bo'ladi va bu jahon valuta bozoriga yomon ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, 1930-yillarda oltin standartining bekor qilinganidan so'ng to'lov balansini narx orqali muvozanatga keltirish stixiyali mexanizmi yaxshi ta'sir ko'rsatmay qo'ydi. Shu sababli to'lov balansini muvozanatlashtirish hukumat tomonidan maqsadli chora-tadbirlar ko'rishni talab etadi.


---

<sup>33</sup> J. Ataniyazov, E. Alimardonov. "Xalqaro moliya munosabatlari" – darslik – T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2014, 433 b.

Uchinchidan, globalashuv sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida to'lov balansining ahamiyati ortdi. Uni muvozanatlashtirish masalasiga xuddi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishsizlik va inflatsiyani ushlab turish kabi davlat siyosatining asosiy masalalari kabi qaraladi.

To'lov balansining moddiy asosi bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- 1) Rasmiy oltin-valuta zaxiralari;
- 2) Davlat budjeti;
- 3) Xalqaro iqtisodiy aloqalarda davlatning bevosita kapital eksportchisi, kreditor, kafolat beruvchi va qarz beruvchi sifatida ishtirok etishi;
- 4) Tashqi iqtisodiy operatsiyalarni qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali reglamentlashtirish



## 2.2-rasm. Mamlakatlarning joriy operatsiyalari saldos, mlrd. AQSH dollari<sup>34</sup>


Yuqoridagi 2.2-rasmda mamlakatlarning joriy operatsiyalar saldosini keltirilgan bo'lib, eng yirik saldo ko'rsatkichi 2014-yilda 437,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Diagramma ma'lumotlaridan shu narsa ma'lumki, xizmatlar saldosini 2009-2016-yillarda uzluksiz ravishda defitsit ko'rsatkichga ega. Eng yirik defitsit

<sup>34</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



2015-yilda kuzatilgan bo'lib, 147,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Tovar savdolari saldosi e'tibor beradigan bo'lsak, bu ko'rsatkich xizmatlar saldosi holatining teskarisi kuzatilgan bo'lib, tovarlar savdosi saldosi 2009-2016-yillarda faqatgina profitsit ko'rsatkichni ega. Tovarlar savdosi saldosi eng yirik haji 2013-yilga to'g'ri kelib, 581,9 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan.

Davlat tomonidan to'lov balansining tartibga solinishi – bu to'lov balansining asosiy elementlarini shakllantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy, valutaviy, moliyaviy, pul-kreditga oid, shuningdek, yuzaga kelgan saldoni qoplash bilan bog'liq chora-tadbirlar majmui hisoblanadi. To'lov balansining holati va mamalakat siyosatidan kelib chiqib tartibga solishning turli metodlari qo'llaniladi.



### 2.3-rasm Mamlakatlar to'lov balansining birlamchi va ikkilamchi daromadlar saldosi, mlrd. AQSH dollari<sup>35</sup>

2.3-rasmda 2009-2016-yillardagi jahon mamlakatlari to'lov balansining birlamchi va ikkilamchi daromadlari saldosi keltirilgan bo'lib, birlamchi daromadlar va ikkilamchi daromadlar ushbu yillarda defitsit holatni ko'rsatgan. Xususan, birlamchi daromadlar saldosi 2009-yilda 46,7 mlrd. AQSH dollari miqdorida defitsit ko'rsatkichga ega bo'lgan bo'lsa, 2013-yilda o'zining eng yuqori ko'rsatkichi bo'lgan 119,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan.

<sup>35</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ikkilamchi daromadlar saldosi birlamchi daromadlar saldosi defitsitidan bir muncha yuqori bo'lib, 2009-yilda 119,2 mlrd. AQSH dollari miqdorida defitsit kuzatilgan. Eng yuqori defitsit ko'rsatkichi birlamchi daromad saldosi bilan bir xil ravishda 2013-yilda kuzatilgan bo'lib, uning miqdori 174, mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan.

Yirik va davomli defitsitli to'lov balansi mamlakatlarga uni muvozanatlashtirish jiddiy muammo sanaladi. Xalqaro hisob-kitoblarning aktiv balansiga ega mamlakatlar ularni tartib o'rnatishga chaqiradi: inflatsiyani cheklash, deflatsion siyosat o'tkazish, eksportni rag'batlantirish, tovarlar importini jilovlab turish va hokazo. AQSH shu kabi talablarni Ikkinchi Jahon urushidan keyin surunkali to'lov balansi mavjud bo'lgan G'arbiy Yevropa davlatlariga oldinga surishgan. 1960-, 1980-, va 2000-yillar boshida holat o'zgardi: G'arbiy Yevropa mamlakatlari shu kabi chaqiruvlar bilan AQSHga murojaat qilishdi. To'lov balansi defitsitiga ega mamlakatlar odatda aktiv balansli hamkorlari import cheklovlarini yengillashtirishni, kapital olib chiqishni kengaytirishni talab qilishadi.

To'lov balansi defitsitiga ega mamlakatlar eksportni rag'batlantirish, tovarlar importini jilovlab turish, xorijiy kapitalni jalb qilish, kapital chiqib ketishini cheklash maqsadida quyidagi metodlardan foydalaniladi<sup>36</sup>.

*1. Deflatsion siyosat.* Bunday siyosat ichki talabni qisqartirishga yo'naltirilgan bo'lib, budjet xarajatlarini cheklash, narxlarni va ish haqlarini muzlatishni o'z ichiga oladi. To'lov balansini tartibga solishda deflatsion siyosat narxlarni pasaytirish va ovar va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan.

Ushbu siyosat instrumentlari bo'lib moliyaviy va pul-kreditga oid chora-tadbirlar xizmat qiladi: budjet defitsitini kamaytirish, markaziy bank hisob stavkasi (diskont stavkasi)ni o'zgartirish, kredit cheklovlari, pul massasi o'sishining maqsadli ko'rsatkichlarini belgilash va inflatsion targetlash. Iqtisodiy pasayish sharoitida, shuningdek, yuqori ishsizlik va ishlab chiqarish kuchlarining

---

<sup>36</sup> Под редакцией Л.Н.Красавиной «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения, Москва – «Финансы и Статистика» 2012. 576 стр.

foydalanilmagan zaxiralari mavjudligi deflatsion siyosat ishlab chiqarish va bandlikning yanada pasayishiga olib keladi.

2. *Devalvatsiya.* To'lov balansini boshqarishda devalvatsiyaning o'rnini umumiy va moliyaviy siyosatga va devalvatsiya o'tkazishning aniq shartlaridan kelib chiqadi. Devalvatsiya eksport salohiyatiga ega raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar, shuningdek, jahon bozorida qulay holatdan kelib chiqib eksportni rag'batlantiradi. Bu devalvatsiyaning importni jilovlab turish ta'siriga bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish jarayonining baynalmilallasuvi va xalqaro ixtisoslashuvning rivojlanishi sharoitida ko'pincha tovarlar importini keskin qisqartira olmaydi. Shu sababli ham ko'p mamlakatlar import o'rnini bosish siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshira olmaydi.

Devalvatsiyaning importni cheklashi milliy tovarlar ishlab chiqarilishidagi xarajatlarning, inflatsiyaning o'sishiga va tashqi bozorda ustunliklarni boy berishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ba'zi holatlarda bu mamlakatlarga vaqtinchalik ustunliklar taqdim etishi mumkin, lekin ko'p hollarda to'lov balansini defitsiti sabablarini yo'qota olmaydi. Kerakli samaraga erishish uchun yetarli darajada bo'lishi kerak. Aks holda, devalvatsiya valuta bozoridagi spekulyatsiyaning ortishiga olib keladi va oqibatda valuta kursini qayta ko'rib chiqish zarurati saqlab qolinadi. Masalan, 1967-yilning noyabr oyidagi funt-sterlingning 14,3 foizli va AQSH dollarining 1971-yil dekabr oyidagi 7,89 foizli devalvatsiyasi ushbu valutalar nisbatan spekulyativ bosimni yo'qota olmadi. Bir paytning o'zida yuqori darajadagi devalvatsiya boshqa valutar kursining zanjirli ravishda pasayishiga olib keladi va o'zining valutasini devalvatsiya qilgan mamlakat o'zi ko'zlab turgan raqobatdagi ustunliklaridan mahrum bo'ladi. Ba'zi bir mamlakatlar uzoq muddat davomida turlicha valuta kurslarini qo'llab kelishadi, ba'zida yashirin devalvatsiyani ikki xil valuta bozori shaklida. Suzib yuruvchi valuta kursini joriy etilishi to'lov balansini muvozanatlashtira olmadi. Keskin devalvatsiyalarning qisqarishi ma'lum bir miqdorda to'lov balansiga spekulyativ bosimni yengillashtirdi, biroq suzib yuruvchi valuta kurslari sharoitida import va eksport tovarlari mutanosibligiga nisbatan bozor sustlashishiga uning hech qanday ta'siri yo'q. Shu sababdan

devalvatsiyaning samaradorligini ta'minlash maqsadida ko'p mamlakatlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar, eksport va importga differensiallashgan subsidiya va bojlar kiritadi.

## 2.4-jadval

### Joriy operatsiyalar hisobvaraqlar defitsiti eng yirik mamlakatlar, mlrd. AQSH dollarida<sup>37</sup>

Mamlakat/yillar	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil
<b>AQSH</b>	-426,2	-349,5	-373,8	-434,6	-451,7	-466,2
<b>Buyuk Britaniya</b>	-113,1	-151,9	-161,2	-149,8	-154,9	-106,5
<b>Kanada</b>	-65,7	-59,4	-43,2	-56,2	-49,4	-49,3
<b>Turkiya</b>	-48,0	-63,6	-43,6	-32,1	-33,1	-47,4
<b>Hindiston</b>	-91,5	-49,1	-27,3	-22,5	-12,1	-39,1
<b>Avstraliya</b>	-64,5	-47,9	-42,3	-58,1	-37,0	-32,7
<b>Meksika</b>	-18,4	-30,9	-23,7	-29,3	-22,8	-18,8
<b>Braziliya</b>	-74,1	-74,8	-104,2	-59,4	-23,5	-9,8
<b>Saudiya Arabistoni</b>	164,8	135,4	73,8	-56,7	-23,8	
<b>Jazoir</b>	12,1	1,2	-9,5	-27,2	-26,2	

2.4-jadvalga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu jadvalda to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobvarag'i eng yirik defitsitga ega bo'lgan 10 mamlakat keltirilgan bo'lib, eng yirik defitsitga ega bo'lgan mamlakat AQSH hisoblanadi. Uning joriy operatsiyalar hisobvarag'i 2017-yilda 466,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Bu 2-o'rinda qayd etilgan Buyuk Britaniya joriy operatsiyalar hisobvarag'i defitsidan deyarli 4,5 barobarga ortiqdir. Ulardan keyin joriy operatsiyalar hisobvarag'i defitsitni tashkil etadigan Kanada, Turkiya, Hindiston bo'lib, ularning miqdori bir-biriga yaqin bo'lib, mos ravishda 49,3 mlrd. AQSH dollari, 47,4 mlrd. AQSH dollari va 39,1 mlrd. AQSH dollariga teng.

3. *Proteksionistik chora-tadbirlar.* Valuta cheklovlari – eksportchilarning xorijiy valutadagi daromadini ta'qiqlash, importchilarga xorijiy valuta sotuvini litsenziyalash, valuta operatsiyalarini ma'lum banklarga berish orqali umumlashtirish – tovarlar importini jilovlash, kapital eksportini va uning oqimi rag'batlantirilishini cheklash orqali to'lov balansi defitsitini kamaytirishga

<sup>37</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

qaratilgan. To'lov balansi joriy operatsiyalarini liberallashtirilganiga qaramasdan valutasini konvertatsiya qilinadigan 90 % mamlakatlar kapitalning xalqaro harakatiga cheklolarni qo'llagan (Yaponiya 1980-yillargacha, Yevropa ittifoqi mamlakatlari 1992-yilgacha). Rivojlanayotgan mamlakatlar qisman valuta cheklovlaridan foydalanishda davom etishmoqda.

## 2.5-jadval

### Joriy operatsiyalar balansi profitsiti mamlakatlar, mlrd. AQSH dollarida <sup>38</sup>

№	Mamlakat / yillar	2011-yil	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
1	Germaniya	228,7	248,9	253,0	289,2	300,8	297,3
2	Xitoy	136,1	215,4	148,2	236,0	304,2	202,2
3	Yaponiya	129,6	60,1	46,4	36,4	136,5	194,0
4	Janubiy Koreya	18,7	50,8	81,1	84,4	105,9	99,2
5	Gollandiya	81,3	89,5	85,5	75,9	65,8	65,6
6	Shveysariya	55,2	68,7	77,8	60,0	73,8	63,2
7	Singapur	61,1	49,4	50,3	58,2	56,5	58,8
8	Tayland	9,4	-1,7	-4,9	15,2	32,1	48,2
9	Rossiya	97,3	71,3	33,4	57,5	67,7	24,4
10	Irlandiya	2,8	9,2	14,4	8,9	31,7	14,3

2.4-jadvaldan farqli ravishda 2.5-jadvalda joriy operatsiyalar hisobvarag'i profitsiti yuqori bo'lgan eng yirik mamlakatlar ro'yxati keltirilgan bo'lib, eng yirik profitsitga ega mamlakat bu Germaniyadir. Uning joriy operatsiyalar hisobvarag'i profitsiti 2016-yilda 297,3 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan, bu 2015-yilga nisbatan 3,5 mlrd. AQSH dollariga kam. Undan keyingi o'rinda Xitoy Xalq Demokratik Respublikasi bo'lib, 2016-yilda 202,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra Xitoy to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobvarag'ida 2015-yilga nisbatan deyarli 33%ga kamayish kuzatilgan. Eng yirik joriy operatsiyalar hisobvarag'i profitsitga ega mamlakatlar uchligini Yaponiya yakunlab bergan bo'lib, uning miqdori 194,0 mlrd. AQSH dollariga yetgan. Yuqoridagi 2 mamlakatdan farqli ravishda Yaponiya joriy operatsiyalar

<sup>38</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.


hisobvarag'ida oldingi yillarga nisbatan 57,5 mlrd. AQSH dollariga o'sish kuzatilgan.

4. *Moliya va pul-kredit siyosati.* To'lov balansi defitsitini kamaytirish maqsadida eksportchilarga budjet subsidiyalarini berish, proteksionistik import bojlari, mamlakatga kapital oqimini oshirish maqsadida qimmatli qog'ozlarning xorijlik egalariga to'lanadigan foizlarga nisbatan soliqlarni bekor qilish, pul-kredit siyosati, ayniqsa, hisob siyosati va pul massasi va inflatsiyani targetlashdan foydalanilmoqda.

5. *To'lov balansiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlatning maxsus choratadbirlar* uni shakllantirishdagi asosiy elementlar – savdo balansi, “ko'rinmas” operatsiyalar, kapital harakati. Tartibga solishning asosiy obykti savdo balansi hisoblanadi.

Davlat tomonidan tartibga solish nafaqat murojaat sohasini, balki eksport tovarlari ishlab chiqarish sohasini ham qamrab oladi. Eksportni rag'batlantirish narxga ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshiriladi (eksportchilarga soliq, kredit imtiyozlarini taqdim etish, valuta kursini o'zgartirish va h.k.). Tashqi bozorlarni egallashga qiziqishni oshirish maqsadida davlat kreditlar taqdim etadi, ularni iqtisodiy va siyosiy risklardan sug'urta qiladi, asosiy kapital amortizatsiyasining imtiyozli rejimini kiritadi va ma'lum bir eksport dasturini amalga oshirish majburiyati evaziga ularga boshqa moliya-kredit imtiyozlarini taqdim etadi.

Jahon bozoridagi o'sib borayotgan raqobat sharoitida asosiy e'tibor ishlab chiqarish eksportini ichki ixtisoslashuv va milliy firmalarning xorijiyarlari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish orqali tartibga solishga qaratilmoqda. Davlat kichik va o'rta darajadagi firmalarning eksport faoliyatini rag'batlantiradi. “Yashil neft” deb qaraluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportirini oshirish bo'yicha choratadbirlar qabul-qilinadi.



**2.4-rasm. Moliyaviy hisobvaraqlar saldosini va uning tarkibi, mlrd. AQSH dollari<sup>39</sup>**

2.4-rasmda mamlakatlarning moliyaviy hisobvaraqlariga oid ko'rsatkichlar keltirilgan. Moliyaviy hisobvaraqlar 5 ta moddadan iborat bo'lib, ularga sof portfel investitsiya, sof to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, hosilaviy moliyaviy instrumentlar, sof boshqa investitsiyalar va zaxira aktivlar kiradi.

Sof to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 2016-yilda 253 mlrd. AQSH dollari defitsitga ega bo'lib, bu oldingi yil bilan solishtirganda 5,1 mlrd. AQSH dollariga ko'pdir.

Sof portfel investitsiyalar moddasiga e'tibor beradigan bo'lsak, 2012-2016-yillarda salmoqli o'sish kuzatilganini sezish mumkin. Jumladan, 2012-yilda sof portfel investitsiyalar 447,7 mlrd. AQSH dollariga teng defitsitga ega bo'lgan bo'lsa, 2016-yilga kelib, 267,2 mlrd. AQSH dollariga teng profitsit kuzatilgan.

<sup>39</sup> [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Hosilaviy moliyaviy instrumentlar moddasi 2016-yilda 67,3 mlrd. AQSH dollariga teng miqdorda profitsitni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan deyarli 30,0 mlrd. AQSH dollariga teng o'sish kuzatilgan.

Sof boshqa investitsiyalar moddasi moliyaviy hisobvaraqlar tarkibida 2012-2016-yillarda eng yirik profitsitga ega modda bo'lib, 2016-yilda 300 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan. Bu oldingi yilga nisbatan deyarli ikki barobarga kam bo'lib, oldingi yili 596,6 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan.

Zaxira aktivlari moddasiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu modda bo'yicha 2012-2013-yillar bo'yicha profitsit eng yuqori ko'rsatkichga yetgan bo'lib, mos ravishda 723,6 mlrd. AQSH dollari va 751,0 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan. Keyinchalik keskin pasayish kuzatilib, 2016-yilda o'zining eng past ko'rsatkichi bo'lgan 293,3 mlrd AQSH dollari miqdoridagi defitsit ko'rsatkichga yetgan.

Eksportning davlat tomonidan tartibga solinishi tovar harakatining xorij bozorini o'rganishdan tortib to savdodan keyingi xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Eksportni rag'batlantirish usullari asosan kompleks ravishda qo'llaniladi. Ular eksportchilarni valutaviy, kredit, moliyaviy va tashkiliy shaklda qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, reklama, ma'lumotlar, kadrlar tayyorlashni o'z ichiga oladi. Kapitalni eksport qilish azaldan tovarni eksport qilishni rag'batlantirish maqsadida foydalaniladi. Passiv to'lov balansi sharoitida importni boshqarish uni qisqartirish va milliy ishlab chiqarishni importni o'rnini bosishga qaratilgan holda amalga oshiriladi. Tarifli qurolsizlantirish tendensiyasida raqobatbardosh importga nisbatan tarifsiz cheklovlar kuchaytiriladi.

Moliyaviy hisobvaraqlarning umumiy saldosi 2014-yilda eng yirik profitsit ko'rsatkichi bo'lgan 385,0 mlrd. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, 2016-yil holatiga bu ko'rsatkich 85,1 mlrd. AQSH dollariga teng.

To'lov balansining "ko'rinmas" operatsiyalar bo'yicha to'lovlar va tushumlarini boshqarish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- Sayyohlarni jalb qilish maqsadida davlatning turistik infratuzilmani shakllantirishda ishtirok etishi;



- “Transport” qismi bo’yicha xarajatlarni pasaytirish maqsadida budget mablag’lari hisobiga dengiz kemalari qurishda hamkorlik qilish;
- Patentlar, litsenziyalar, ilmiy-texnik bilimlar savdosi bo’yicha tushumlarni oshirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari bo’yicha davlat xarajatlarini kengaytirish;
- Ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solish, xorijiy ishchilar kirib kelishini qisqartirish maqsadida uzluksiz ravishda immigrantlarni cheklash.

Kapital harakatini boshqarish bir tomondan milliy tadbirkorlarni tashqi iqtisodiy rivojlanishini rag’batlantirish bo’lsa, boshqa tomondan xorijiy kapital kirib kelishini va milliy kapital repatriatsiyasini rag’batlantirish yo’li orqali to’lov balansini muvozanatlashtirishga yo’naltirilgan. Bu tizimda davlatning kapitalni eksport qiluvchi faoliyati birlashtirilgan bo’lib, xususiy investitsiya va tovarlar eksporti uchun qulay shart sharoit yaratuvchi shaklida namoyon bo’ladi. Investitsiyalar bo’yicha davlat kafolati ularni tijorat va siyosiy risklardan sug’urta qilishni ta’minlaydi.

Shuningdek, davlat kapitalning chiqib ketishini jilovlash bo’yicha chora-tadbirlarni qabul qiladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Mamlakatda iqtisodiy va siyosiy barqarorlashtirish;
- Milliy valuta va hukumatga ishonchni oshirish;
- Milliy xavfsizlikni ta’minlash;
- Korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish.

Kapital chiqib ketishini jilovlashning muhim usullaridan biri bu xorijiy kapital harakati va jinoiy ishlardan olingan daromadlarni yuvish ustidan samarali nazorat o’rnatish hisoblanadi.

Kapital chiqib ketishini jilovlashning jahon amaliyotida pul kapitali va xorijiy investitsiya ustidan qonunchilik me’yorlari hamda ma’muriy va moliyaviy nazorat chora-tadbirlari birgalikda qo’llaniladi.

Umuman olganda, to’g’ri monetar siyosat olib borish to’lov balansi shoklari davomida iqtisodiyotning yangi tashqi iqtisodiy holatlarga tez moslashib ketishiga sababchi bo’ladi.

Tuzilmaviy islohotlar ham tuzilmaviy shoklar paytida juda muhim rol o'ynaydi. Bu islohotlar iqtisodiyotning nafaqat yangi muvozanatlikka moslashishga, balki moslashuvchanlik va egiluvchanlikni yaxshilash evaziga ushbu muvozanatlikning sifatini oshirishga va iqtisodiyotning tuzilmasini takomillashtirishga olib keladi.<sup>40</sup>

## **II bob bo'yicha xulosalar**

1. To'lov balansi – bu statistik hisobot bo'lib, ma'lum bir davr oralig'idagi rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi iqtisodiy operatsiyalarning summasi shaklida taqdim etiladi.

2. To'lov balansi joriy operatsiyalar hisobi, moliyaviy hisob, kapital bo'yicha operatsiyalar hisobi va sof xato va o'tkazib yuborishlar qismidan iborat.

3. Joriy operatsiyalar hisobi tovar va xizmatlar, rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi birlamchi va ikkilamchi daromadlar harakatini ifodalaydi. Joriy operatsiyalar hisobi o'zida to'lov balansining asosiy hisobvaraqlarini jamlagan.

4. Tovarlar va xizmatlar saldosi mamlakatga eksport va import qilingan tovar va xizmatlar bo'yicha sof eksport yoki importni ifodalaydi.

5. Birlamchi daromad institutsional birliklarning ishlab chiqarish jarayoniga kiritgan mablag'idan olgan foydani yoki moliyaviy aktivlar taqdim etish va tabiiy resurslarni boshqa institutsional birliklarga ijaraga berishdan olgan foydani o'z ichiga oladi.

6. Joriy hisob xalqaro operatsiyalar obyektini tashkil etadigan mahsulotlarning raqobatbardoshligi, shuningdek, milliy valutaning boshqa valutalarga nisbatan o'zgarishi bilan bog'liq. Joriy valutaga nisbatan qimmatli milliy valuta eksport hajmining pasayishi fonida import hajmini oshirishga olib keladi. Natijada, agar milliy valutaning amortizatsiya tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa, xalqaro operatsiyalar bir maromda ekanligi uchun eksport rag'batlanadi, import kamayadi.<sup>41</sup>

---

<sup>40</sup> A. Sinyakov, K. Yudaeva, Central bank policy under significant balance of payment shocks and structural shifts, Russian journal of Economics, page 27. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)

<sup>41</sup> C. Sandu. "Implications of the change in the balance of payments and the situation of its components on the Romanian exchange rate", Procedia economics and Finance, page 6, [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)

7. Ikkilamchi daromadlar hisobida rezidentlar va norezidentlarning joriy transfertlari bo'yicha hisobi olib boriladi. Bu hisobvaraqa turli xil transfertlarning hisobi yuritilib, mamlakatlar o'rtasida daromadlar taqsimoti jarayonida ularning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Transfertlar pul va natura shaklida amalga oshirilishi mumkin.

8. Kapital bo'yicha operatsiyalar hisobi tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasida rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi olinadigan va to'lanadigan kapital transfertlar va ishlab chiqarilmaydigan nomoliyaviy aktivlarni sotib olish va sotib yuborish bo'yicha operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

9. Kapital harakatini boshqarish nafaqat milliy tadbirkorlarni tashqi iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish, balki boshqa tomondan xorijiy kapital kirib kelishini va milliy kapital repatriatsiyasini rag'batlantirish yo'li orqali to'lov balansini muvozanatlashtirishga yo'naltirilgan.

### **III BOB. O'ZBEKISTON SHAROITIDA XALQARO MOLIYA OPERATSIYALARINING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

#### **3.1 O'zbekistonda xalqaro moliya operatsiyalarining huquqiy asoslari va ularni takomillashtirish**

O'zbekiston Respublikasi o'z suverenitetiga ega bo'lgandan keyin o'zining mustaqil tashqi siyosatini, shu jumladan, tashqi iqtisodiy siyosatini yurita boshladi. Davlatimiz tashqi iqtisodiy siyosati, birinchi navbatda, milliy iqtisodiyotimizning manfaatlarini ustun qo'yib, xalqaro moliya munosabatlarida faol ishtirok etishga qaratilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng tashqi iqtisodiy faoliyatga katta e'tibor qarata boshladi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan tashqi savdo va xorijiy investitsiyalarga katta e'tibor qaratila boshlandi. Shu sababli xorijiy investitsiya va tashqi savdoga oid qonunchilik hujjatlari, qonunosti hujjatlari qabul qilinib, xorijiy investorlarning huquqlari mustahkamlandi.

Hozirda esa Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan tashqi siyosat, jumladan, tashqi iqtisodiy aloqalar, xalqaro moliya operatsiyalarini rivojlantirish, xalqaro moliya tashkilotlari bilan munosabatlarni mustahkamlash sohasiga katta e'tibor berilyapti. Jumladan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida “Biz O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro moliya institutlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda tuzilgan shartnoma va kelishuvlarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarish bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlarni ko'ramiz”<sup>42</sup> – deya qayd etib o'tdilar.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar davomida iqtisodiyotni tartibga solish, shu jumladan, xalqaro iqtisodiy aloqalarni, tashqi savdoni rivojlantirish maqsadida bir qancha qonunlar, huquqiy-me'yoriy

---

<sup>42</sup> [www.uza.uz](http://www.uza.uz) “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi” 22-dekabr 2017-yil

hujjatlar, Prezident qarorlari, farmonlari qabul qilinib amaliyotga tatbiq qilindi. Ularning eng asosiylaridan biri “Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida”gi qonun bo’lib, bu qonun orqali mamlakatimizning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni o’rnatish, rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini rivojlantirish uchun asos bo’lib xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu qonun 2000-yil 26-mayda yangi tahrirda qabul qilingan bo’lib, qonunning 3-moddasiga ko’ra “Tashqi iqtisodiy faoliyat” deganda O’zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o’zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o’rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Ushbu qonunda O’zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy prinsiplari ham belgilab berilgan. Unga ko’ra tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ❖ tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- ❖ tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi;
- ❖ savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo’l qo’yilmasligi;
- ❖ tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o’zaro manfaatdorlik;
- ❖ tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

O’zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatning subyekti sifatida O’zbekiston Respublikasi tasarrufiga:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonun asoslarini belgilash;
- tashqi iqtisodiy siyosatni, shu jumladan, valuta-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, O’zbekiston Respublikasi valuta fondini shakllantirish va undan foydalanish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni ijro etish;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida respublikaning, uning yuridik shaxslari va fuqarolarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;
- Respublika hududida chet ellik investorlar faoliyati uchun huquqiy kafolatlarni belgilash;
- O'zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va birlashmalarda vakillik qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan boshqa vakolatlar kiradi.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ◆ tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish;
- ◆ tabaqalashtirilgan soliqlar va imtiyozlar sistemasi, shu jumladan valuta bo'yicha ham belgilanish;
- ◆ tashqi iqtisodiy faoliyatni axborot bilan ta'minlashning davlat tizimini yaratish;
- ◆ ayrim mintaqalar, tarmoqlar va korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish va rivojlantirishi uchun dotatsiyalar, subsidiyalar, subvensiyalar, budjetdan qarz berish tarzida moliyaviy yordam ko'rsatish, tavakkalchilikni sug'urta qilish;
- ◆ respublika tashqi iqtisodiy aloqalarining turli shakllarini rivojlantirishga qaratilgan aniq maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqish, pul bilan ta'minlash va ekspertiza qilish;
- ◆ O'zbekiston Respublikasiga olib kelinadigan va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqib ketiladigan tovarlar va boshqa molmulklarni hujjatlashtirish;
- ◆ Mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) eksport va import qilish tartibini belgilash;
- ◆ Valuta va boshqa fondlar mablaglarini vujudga keltirish va ulardan foydalanish.

Mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

Birinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish borasida aniq maqsadni ko'zlab o'tkazish, tovarlarni eksport va import qilishda xorijiy sarmoyadorlar o'z daromadlaridan erkin foydalanishlarida birmuncha imtiyozli tartibni joriy etish;

Ikkinchidan, xorijiy sarmoyadorlarni, asosan bevosita kapital mablag'lar tarzidagi sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng jalb etish uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shartsharoitlarni yanada takomillashtirish;

Uchinchidan, O'zbekistonga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib keladigan, xalq xo'jaligining zamonaviy strukturasi vujudga keltirishda yordam beradigan sarmoyadorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o'tkazish;

To'rtinchidan, mablag'larni eng ustuvor sohalarga - respublika mustaqilligini ta'minlaydigan agrar sektorni, yoqilg'i-energetika kompleksini hamda boshqa bazaviy tarmoqlarni rivojlantirishga qodir, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirishga sarflash.

Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslari yaratildi. Bular jumlasiga, O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi, «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi, «Boj tarifi to'g'risida»gi, «Eksport nazorati to'g'risida»gi Qonunlarni hamda «Chet el investitsiyalari bilan loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, «To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarini kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning obyektlari bo'lib, hamma turdagi resurslar, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari va sohalarida

yaratiladigan tovarlar hamda ko'rsatiladigan xizmat, qimmatbaho qog'ozlar, fan-texnika mahsulotlari, intellektual va boshqa boyliklar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanish man etiladigan obyektlar bundan mustasnodir.

### 3.1-jadval

#### O'zbekistonning 2017-yil davomidagi tashqi savdo aylanmasi<sup>43</sup>

	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Eksport</b>	<b>13953,8</b>	<b>115,4</b>	<b>100,0</b>
paxta tolasi	477,0	74,8	3,4
oziq-ovqat mahsulotlari	875,8	126,1	6,3
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	883,3	105,0	6,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1980,1	115,5	14,2
qora va rangli metallar	917,5	129,5	6,6
mashina va asbob-uskunalar	353,3	160,1	2,5
xizmatlar	3505,7	112,3	25,1
boshqalar	4961,1	119,3	35,6
<b>Import</b>	<b>13008,3</b>	<b>107,2</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	1272,7	88,4	9,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	2147,6	101,3	16,5
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	742,0	126,0	5,7
qora va rangli metallar	1274,3	138,4	9,8
mashina va asbob-uskunalar	5054,0	100,7	38,9
xizmatlar	980,1	121,1	7,5
boshqalar	1537,6	123,8	11,8

Yuqoridagi 3.1-jadval ma'lumotlarida O'zbekistonning 2017-yildagi tashqi savdo ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, tovar va xizmatlar turlari bo'yicha ajratib ko'rsatilgan.

<sup>43</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlari asosida




Ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2017-yilda O'zbekistonning jami eksport hajmi 13 958,3 mln. AQSH dollarini, import esa 13 008,3 mln. AQSH dollari bo'lib, tashqi savdo aylanmasi saldosi 945,5 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

Eksport tarkibida eng katta ulushni boshqa tovar va xizmatlar 35,6% (4961,1 mln. AQSH dollari) bilan band etgan, uning 2016-yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 19,3 %ni tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda xizmatlar sektori oldingi yilga nisbatan 12,3% o'sishga erishib, ekspordagi ulushi 25,1% (3505,7 mln. AQSH dollari) ga yetgan. O'tgan yilga nisbatan eng yirik o'sish mashina va uskunalar eksportida (60,1%) kuzatilgan bo'lsa-da, jami eksport tarkibidagi ulushi 2,5%ni tashkil etgan.

Import ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, import tarkibidagi eng yirik ulushni eksportdan farqli ravishda mashina va uskunalar importi egallagan. Mashina uskunalar importi jami importning 38,9 % ini yoki 5 054,0 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Import tarkibida qora va rangli metallar importi 38,4 %ga o'sib, 1 274,3 mlrd. AQSH dollariga yetgan.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar sababli hozirgi kunda mamlakatimizga kirib kelayotgan xorijiy investorlarning ham soni va ular kiritayotgan investitsiya miqdori ham yildan yilga oshib bormoqda. Jumladan, 2017-yil davomida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning hajmi 16 309,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa (3.1-rasm), oldingi yilga nisbatan o'sish, 28,3 %ga yetgan.

Joriy yil boshidan oladigan bo'lsak, yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning o'sish surati bir oz pasaygan bo'lsada, yil ohiriga kelib yuqori suratlarda o'sish kuzatildi. Bu, albatta, yuqorida sanab o'tilgan Buxoro viloyatidagi Qandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodini qurish ishlari bo'yicha investitsiyalarning o'zlashtirilishi bilan bevosita bog'liq.



### 3.1-rasm. 2017-yilda asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar<sup>44</sup>

Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarning ishtirokchilari sifatida ro'yxatga olinib, respublika hududida yoki uning tashqarisida ish olib borayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan ajnabiy yuridik va jismoniy shaxslar, xalqaro tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining subyektlari bo'lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari:

- ❖ O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilib turgan qonun normalari va normalarga, hamma tomonidan e'tirof etilgan xalqaro normalar va qoidalarga rioya etishi;
- ❖ Belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy aloqalarning ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tishi hamda buxgalteriya va statistika hisobotlarini taqdim etishi;
- ❖ Xalqaro hamkorlik doiralarida bajarilayotgan ishlar, qidiruv ishlari va loyihalarning sanitariya-gigiyena, ekologiya talablari va boshqa talablarga muvofiqligi haqida ekspertiza xulosasini olishi;
- ❖ Ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tashqi iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lishi shart.

<sup>44</sup> www.stat.uz ma'lumotlari

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda yangi tahrir ostida qabul qilingan "Valutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuni bevosita mamlakatimiz hududida amalga oshiriladigan valutaga oid operatsiyalarni amalga oshirishning asosiy me'yoriy hujjati hisoblanadi.

Ushbu qonunning maqsadi respublikamiz hududida amalga oshiriladigan valutaga oid operatsiyalarni tartibga solishdan iboratdir.

Yuqoridagi qonunning 6-moddasida valutaga oid operatsiyalarning turlari belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

➤ valuta boyliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'zga shaxsga o'tishi hamda valuta boyliklarini to'lov vositasi sifatida ishlatish bilan bog'liq operatsiyalar;

➤ valuta boyliklarini O'zbekiston Respublikasida olib kirish va jo'natish, shuningdek O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish va jo'natish;

➤ xalqaro pul jo'natmalarini amalga oshirish;

➤ rezidentlar va norezidentlar o'rtasida milliy valutadagi operatsiyalar.

➤ valuta operatsiyalari joriy xalqaro operatsiyalarga hamda kapital harakati bilan bog'liq valuta operatsiyalari.

O'zbekistonda amalga oshiriladigan joriy xalqaro operatsiyalarning turlari "Valutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

◆ tashqi savdo, boshqa joriy faoliyat olib borilishi, shu jumladan xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan, shuningdek odatdagi qisqa muddatli bank va kredit mexanizmlari ishlashi munosabati bilan to'lanishi zarur barcha to'lovlar;

◆ foizlar va boshqa daromadlar ko'rinishida, shu jumladan bank omonatlari, kreditlar hamda lizing bo'yicha olinadigan foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shuningdek boshqa investitsiyalardan olinadigan sof daromad shaklida to'lanishi zarur to'lovlar;

◆ kreditlarni, qarzlarni uzish uchun yoki to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar amortizatsiyasi uchun maqbul summalarni to'lash;

◆ savdo bilan bog'liq bo'lmagan pul jo'natmalarining maqbul summalari.

- ◆ Savdo bilan bog'liq bo'lmagan pul jo'natmalariga quyidagilar kiradi:
- ◆ ish haqi, stipendiyalar, pensiyalar, alimentlar to'lash;
- ◆ xodimlarni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash;
- ◆ ta'lim va davolanish uchun haq to'lash;
- ◆ O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatiya va boshqa vakolatxonalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlatlararo yoki hukumatlararo tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalari ta'minoti uchun haq to'lash;
- ◆ notarial va tergov harakatlari bilan bog'liq to'lovlar, shuningdek bunday harakatlarni amalga oshirish va ishlarni sudlarda ko'rish munosabati bilan davlat boji to'lash;
- ◆ sudning, arbitrajning, shuningdek tergov va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qarorlari asosida pul mablag'lari to'lash;
- ◆ xalqaro kongresslar, simpoziumlar, konferensiyalarda, sport va madaniy tadbirlarda, shuningdek boshqa xalqaro uchrashuvlar, ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etganlik uchun to'lovlar, investitsiya bilan bog'liq va moddiy xarajatlar bundan mustasno;
- ◆ dafn qilish bilan bog'liq to'lovlar;
- ◆ mualliflik haqini to'lash, patent bojlarini to'lash va intellektual mulk sohasidagi litsenziya shartnomalarining majburiyatlari bo'yicha haq to'lash;
- ◆ xalqaro notijorat tashkilotlariga badallar;
- ◆ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadigan boshqa operatsiyalar.

Mamlakatimizning tashqi savdo va xalqaro moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishdagi o'z pozitsiyasini “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi qonunining 9-moddasida belgilab qo'ydi. Ular quyidagilar hisoblanadi:

- Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- Tashqi savdo faoliyati;
- Chet el investitsiyalarini jalb qilish;

- O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati.

Ma'lumki, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. U mamlakatning jahon hamjamiyatiga bo'lgan aloqasini ifodalab, uning istiqbolini belgilab beradi. Eksport salohiyatini oshirish orqali mamlakat ichida ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishning rivojlanishiga erishiladi. Mamlakat eksporti hamda importning qiymati o'rtasidagi farq, ya'ni saldo tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligining muhim iqtisodiy ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich milliy daromad darajasiga ko'p tomonlama ta'sir etadi. Sababi, import va eksport hajmidagi sezilarli o'zgarish ham mamlakatdagi daromad, bandlik va narx darajalarida muayyan tebranishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Keyingi yillarda mamlakatimizda keskin raqobatlashuv sharoitida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo'lishi va mustahkam o'rin egallashi uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda importning o'rnini qoplash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturning maqsadi, mavjud resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan imkon boricha to'liq va sarnarali foydalanish hamda uni rivojlantirish asosida eksport hajmining barqaror o'sishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

Shu maqsadda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmonida "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" tasdiqlandi. Harakatlar strategiyasining 3-bobi „Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari“ deb nomlangan bo'lib, uning 2-bandida eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlarini va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida barcha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### **3.2 O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvining istiqbollari**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach erkin ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarni barpo etish yillari sifatida munosib tarixiy voqelikka aylandi. Shuningdek, mamlakatimizda barqaror bank tizimi yaratilishi bilan xalqaro moliyaviy munosabatlar ko'lami yanada kengayib bordi, bu holat o'z navbatida xalqaro moliya institutlari va tijorat banklari o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratdi. Hozirgi kunda mamlakatimiz tijorat banklari hamda xalqaro moliya institutlari o'rtasida bir qator samarali loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa respublikamiz iqtisodiyotining taraqqiy etishida mustahkam rol o'ynamoqda.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy institutlarning amaliy aloqalariga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, ulardan Xalqaro Valuta Fondi (XVF), Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB), Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) kabi yirik moliyaviy tashkilotlar bilan juda izchil va faol ishlar olib borilmoqda. Mazkur tashkilotlar biz tanlagan yo'l va amalga oshirilayotgan islohotlarning to'g'ri ekanligiga qat'iy ishonch hosil qilganliklari uchun ham yaqin hamkorlik aloqalarini olib bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasining «Xalqaro valuta fondi (XVF) ga a'zolik to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 21-sentabrda XVFga a'zo bo'lib kirdi hamda Vazirlar Mahkamasining 93-F raqamli 1993-yil 27-martdagi Farmoyishiga muvofiq respublikaning XVF imzo kvotasiga to'lov amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki xalqaro moliya tashkilotlarining aloqa agentligi va avuarlar depozitariysi hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining mazkur muassasalarga a'zoligi bilan bogiiq operatsiyalarni amalga oshirish vakolatiga ega.

O'zbekiston Respublikasining hukumati bilan kelishgan holda Moliya vazirligi va Markaziy Bank yuqorida qayd etilgan xalqaro tashkilotlar oldidagi qarz

mablagiar olish, to'lov foizlarini berish va respublika nomidan qarz majburiyatlarini joylashtirish bilan bog'liq moliyaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarishni ta'minlaydi.

O'zbekistonga XVFnining missiyasi texnikaviy yordam ko'rsatish va hukumatda hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankida konsultatsiyalar o'tkazish maqsadida muntazam kelib turadi. Missiyaning faoliyati iqtisod, moliya sho'basini va statistika sohasidagi ishning ahvolini o'rganishga, shuningdek, keyingi iqtisodiy islohotlar yo'nalishini aniqlashga qaratilgan.

XVF ekspertlarining o'rganishlari natijasi bo'yicha tavsiya va analitik materiallar ishlab chiqiladi, makroiqtisodiyot sohasidagi mavjud muammolarni hal qilish yo'llari haqida tavsiyalar tayyorlanadi, bular barchasi Markaziy Bank tomonidan amaliyotda hisobga olinadi.

Bundan tashqari XVF bilan bitimning «Valuta tartibiga nisbatan majburiyatlar» moddasiga muvofiq Fond missiyasi bir yilda kamida bir marta O'zbekistondagi joriy makroiqtisodiy va valuta siyosatining obzorini o'tkazadi. Missiya ishi natijalari bo'yicha tegishli hisobot tayyorlash bilan birga XVF ijrochi direktorlari kengashi muhokamasiga olib chiqiladi.

Xalqaro Valuta Fondi ekspertlari bilan birgalikdagi hamkorlik va ishlash muayyan ijobiy natijalarni berdi.

XVF bank qonunchiligini, buxgalteriyaning hisobga olish hisob raqamlari yangi rejasini xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqishga, shuningdek, hisobga olish va hisobotning yangi tizimini joriy etishga ko'maklashdi, bu bank nazorati samarasi va uning me'yoriy negizi darajasini oshirish imkonini berdi. XVFnining texnikaviy ko'magi to'lovlar elektron tizimini joriy etish va statistika ma'lumotlari yig'ish tizimini yaxshilashga olib keldi.

XVF kreditlari milliy valutani qo'llab-quvvatlash, to'lov balansini mustahkamlashga ajratildi va bevosita O'zbekiston hukumatiga beriladi.

XVF rahbariyati va ekspertlari texnik yordam berish va Hukumat hamda Markaziy Bankda maslahatlar o'tkazish maqsadida bir necha bor O'zbekiston Respublikasiga tashrif bilan keldi.

O'zbekiston Respublikasi va XVF tomonidan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha imzolangan Memorandumda respublika iqtisodiyoti islohotini davom ettirish, valuta bozorini erkinlashtirish, xalqaro joriy operatsiyalar bo'yicha milliy valutani ayirboshlash qilinishi ta'minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rsatilgan.

1992-yil sentabr oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Jahon bankining teng huquqli a'zosi hisoblanadi. 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasining «Xalqaro valuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlikda O'zbekiston Respublikasining a'zoliigi to'g'risida»gi Qonuni kuchga kirdi. Hozir Toshkentda Jahon bankning vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda.

Jahon bankining mamlakatga ko'mak berish bo'yicha mo'ljallangan Strategiyasi doirasida Davlatning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshirilayotgan dasturlar to'plami asosiy 4 yo'nalishga qaratilgan:

1. Iqtisodiy o'sish uchun sharoitni yaxshilash;
2. Qishloqlarda iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini oshirish;
3. Aholiga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish;
4. Atrof-muhitni boshqarish hamda global ommaviy ehtiyojlarning taqdim etilishi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Jahon banki bilan hamkorlikda quyidagi loyihalar amalga oshirilmoqda:

- Qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash loyihasi;
- Irrigatsiya infratuzilmalari va drenajlarni rekonstruksiya qilish loyihasi;
- Maktab ta'limini rivojlantirish loyihasi;
- Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish loyihasi;
- Samarqand va Buxoro shaharlarida quvurlar tizimi va tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish loyihasi;
- Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish loyihasi;
- ♦ -Sirdaryo viloyatida suv ta'minotini yaxshilash loyihasi;



- Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasi (IES) qurilishi loyihasi;
- Sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash loyihasi (Salomatlik-3);
- Elektr energiyasidan foydalanishni nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini joriy etish loyihasi;
- Olot va Qorako'l tumanlarida suv ta'minotini yaxshilash loyihasi va boshqalar.

Mamlakatimizning Osiyo Taraqqiyot Banki bilan o'zaro hamkorlik aloqalari yetarli darajada faol rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda Osiyo Taraqqiyot Bankiga (OTB) a'zo bo'lgan.

O'zbekistonda OTB bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar 4 ta muhim sohalarga yo'naltirilgan. Bular:

- qishloq xo'jaligi;
- xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- transport va bojxona tranziti sohalarida mintaqaviy hamkorlik;
- bolalikni himoya qilish va boshlang'ich ta'limni egallashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish.

OTB va O'zbekiston o'rtasida 2011-2015-yillarda infratuzilma, transport va aloqa tarmoqlarini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi doirasida Maroqand-Qarshi uchastkasida temiryo'llarni elektr energiyasi bilan ta'minlash loyihasi, qishloq joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishi loyihasi, Andijon shahrida suv ta'minoti va sanitariya xizmatlarini yaxshilash loyihasi, Jizzax viloyatining Zafarobod va Arnasoy tumanlarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida qishloq aholi punktlarida suv ta'minotini yaxshilash loyihasi, elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish hamda elektr energiyasini nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini joriy etish loyihasi bo'yicha bitimlar imzolangan.

Shu bilan bir qatorda OTB va mamlakatimiz hukumati o'rtasida Quyosh energiyasi bo'yicha qo'shma xalqaro ilmiy tadqiqot institutini tashkil etish to'g'risida Memorandum imzolangan. Mazkur Memorandumga asosan OTB

tomonidan quyosh energetikasini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirishga mablag'lar ajratilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda Osiyo Taraqqiyot Banki bilan amalga oshirilgan dasturlar va loyihalar xususan qishloq xo'jaligi, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, irrigatsiya, suv resurslarini boshqarish, transport va bojxona tranziti hamda bolalikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari va boshlang'ich ta'limni yaxshilash kabi sohalarni qamrab olgan.

Osiyo Taraqqiyot Banki 2018-2022-yillar uchun mamlakatimizga 2,3 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratishni rejalashtirgan. Shundan 750 mln. AQSH dollari elektr-energetika sohasini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Transport infratuzilmasi va suv ta'minotini modernizatsiya qilishga esa 790 mln. AQSH dollari yo'naltirish orqali mamlakatimizdagi ushbu sohaga oid mavjud kamchiliklarni bartaraf etish ko'zlangan.

O'zbekiston 1992-yildan Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki a'zosi hisoblanadi. YTTB O'zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi eng yirik investorlardan biri hisoblanadi.

YTTB O'zbekistonda o'z faoliyati yettita yo'nalishini belgiladi. Bular quyidagi sohalarni rivojlantirishga qaratiladi:

- Moliya sektori va bank infratuzilmasi;
- Kichik va o'rta korxonalar;
- Bozor infratuzilmasi;
- Energetika majmuasi;
- Paxtani qayta ishlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlari;
- Sayyohlik infratuzilmasi;
- Tabiiy resurslarni o'zlashtirish.

O'zbekiston va YTTB o'rtasidagi aloqalar ba'zi bir sabablarga ko'ra 2008-yilga kelib uzilib qolgandi. Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangandan so'ng xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarni yanada mustahkamlash yuzasidan topshiriqlar berdilar va ularning ijrosi davomida O'zbekiston va YTTB o'rtasidagi aloqalar qaytadan jonlandi.

Xususan, YTTB 2018-yilda O'zbekistonda 15 ta loyihani amalga oshirishni rejalashtirmoqda va ularning umumiy qiymati 186 mln. AQSH dollaridan ziyodroqni tashkil etishi ta'kidlanmoqda.

O'zbekiston Islom Taraqqiyot Bankiga 2003-yil 3-sentabrda a'zo bo'lib kirgan. Ushbu bank tomonidan mamlakatimizda qator loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirildi, jumladan, mintaqaviy tez tibbiy yordam markazlarini zarur jihozlar bilan ta'minlash, elektr energiyasi uzatish tarmoqlarini qurish, kichik va xususiy biznes uchun moliyalashtirish liniyalari, kollejar va umumta'lim maktablarini qurish va jihozlash, davlat moliyasini boshqarish islohotlarini o'tkazishga ko'maklashish va boshqalar.

2006-yilda Islom Taraqqiyot Banki missiyasining O'zbekistonga tashrifi doirasida Islom Taraqqiyot Banki va O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida 2007-2009-yillardagi uch yillik hamkorlik dasturini ishlab chiqish to'g'risida Memorandum imzolandi. Shu bilan birgalikda ITB boshqaruvchilar kengashining 29-yillik yig'ilishi doirasida O'zbekiston Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasiga a'zo bo'lib kirdi. Ushbu korporatsiya xususiy sektorni moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda, shuningdek, korxonalarini qayta qurish va xususiylashtirish dasturlarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektorga maslahat xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Hozirgi kunda Islom Taraqqiyot Banki tomonidan O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish, energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi sohalarga yo'naltirilgan 11 loyihani amalga oshirish uchun 140,22 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan mablag' ajratilgan. Taraqqiyot Banki va O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida 14 loyihani o'z ichiga olgan hamkorlik dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dastur doirasida ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish (suv ta'minoti, uy-joy kommunal xo'jaligi va boshq.), energetika, kichik biznesni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi kabi sohalarni moliyalashtirish ko'zda tutilgan bo'lib uning umumiy qiymati 418,15 mln AQSH dollarini tashkil etadi.

Hozirda Islom Taraqqiyot Banki O'zbekiston hamkorlik qilayotgan xalqaro moliya institutlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallab, mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining Islom Taraqqiyot Bankiga qisqa vaqt oralig'idagi a'zoliqi mobaynida, Bank bilan moliyaviy va texnik hamkorlik barqaror rivojlanib, ijobiy istiqbollarga ega bo'ldi.

O'zbekistonga bank tomonidan sog'liqni saqlash, ta'lim, irrigatsiya va melioratsiya, energetika, suv ta'minoti, kommunal xo'jalik, yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash kabi sohalarda 15 ta loyihani amalga oshirish uchun 463,8 million AQSH dollari ajratilgan.

Islom taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining har yil o'tkaziladigan va Jidda shahrida bo'lib o'tgan 36-yig'ilishi davomida O'zbekiston Respublikasi bilan Islom Taraqqiyot Banki o'rtasida 2011-2013-yillarga mo'ljallangan uch yillik Dasturni amalga oshirishga doir hamkorlik to'g'risida Memorandum imzolandi. Unda infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini ko'paytirish va umumiy qiymati 655,5 million dollarni tashkil etgan 11 ta loyihani amalga oshirish nazarda tutilgan.

O'zbekiston va Islom taraqqiyot banki o'rtasida 2017-yilda 300 mln. AQSH dollarilik moliyaviy kelishuv imzolangan bo'lib, unga ko'ra ushbu mablag'lar "Qishloq joylarda turar-joy qurilishini rivojlantirish" loyihasining 2-bosqichini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Loyihaning 1-bosqichida Bank tomonidan 100 mln. AQSH dollari ajratilgan.

ITB ushbu mablag'larni 15 yillik muddatga, 2 yillik imtiyoz muddati asosida taqdim etdi. Loyihaning amalga oshirilishi natijasida 30 mingga yaqin aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga erishiladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Xalqaro Valuta Fondi, Jahon Banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki hamda Islom Traqqiyot Banki mamlakatimizda qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda o'zining mablag'larini ajratish bilan faol ishtirok

etmoqda. Shuningdek, mamlakatimizdagi bir qator investitsion loyihalarni amalga oshirishda ham mazkur tashkilotlarning o'rnini muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida strategik manfaatlarini takomillashtirib borib, dunyoning turli joylarida va ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni mustahkamlash sohasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyalashuvi milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi, shuningdek, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, millatlar va elatlarning yaqinlashuviga, aholi turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

Mamlakatlarning muayyan integratsion tashkilot doirasida birlashuvi, ular o'rtasida mahsulotlar, xizmatlar va kapital harakati bilan bog'liq munosabatlar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, mamlakatlar o'rtasida yangi texnologiyalarning erkin tarqalishiga, ularning milliy iqtisodiyotlarda ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish jarayoniga joriy etilishiga qulay zamin yaratadi va pirovardida iqtisodiyot barqarorligiga erishishga ko'maklashadi.

O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr mobaynida xalqaro moliya munosabatlarini yo'lga qo'yish va rivojlantirish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi hamda uning mavqei yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

Shunday bo'lsa-da, mamlakatimiz oldida hozirda xalqaro iqtisodiy aloqalarni, jumladan, tovar va xizmatlarning eksport va importini rag'batlantirish, qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish, kapital oqimini oshirishda quyidagi muammolar mavjud:

- Me'yoriy-huquqiy bazaning yuqori darajada rivojlanmaganligi;
- Toshkent shaxarini hisobga olmaganda boshqa viloyatlar va shaxarlarda xorijiy investor va tadbirkorlar o'z faoliyatini olib borishi uchun infratuzilmaning yaxshi emasligi;

➤ Xorijiy valuta konvertatsiyani ochgan bo'lsak-da, banklarda xizmat ko'rsatish darajasining yuqori emasligi, jumladan, AQSH dollaridan boshqa valutilarning konvertatsiyasini amalga oshirishdagi kamchiliklar;

➤ O'zbekiston banklarining haligacha xorijiy investorlar uchun yopiqligi, ya'ni xususiy va aksionerlik banklarida xorijiy investorlarning ulushi kamligi;

➤ Faoliyat yuritayotgan banklarga nisbatan aholi ishonchining pastligi;

➤ Qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori yillik aylanmasi miqdori mamlakat YaIMining bor-yo'g'i 20%ini tashkil etadi, yetakchi rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich mamlakat YaIMidan bir necha barobar yuqori;

➤ Qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi, xususan, mamlakatimizdagi hech bir oliygohda qimmatli qog'ozlar bozori sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan kadrlarning tayyorlanmasligi;

➤ Firmalar va aksionerlik tashkilotlarida korporativ boshqaruvning yaxshi rivojlanmaganligi;

➤ Mahalliy hokimiyat organlari va tashkilotlarda poraxo'rlik va byurokratiyaning mavjudligi;

➤ "Yashirin" iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushining yuqoriligi;

### **III bob bo'yicha xulosa**

1. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xalqaro moliya munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha mustahkam huquqiy-me'yoriy baza yaratdi.

2. Xalqaro moliya tashkilotlari, jumladan, Jahon banki, Xalqaro valuta fondi, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tashkilotlarga a'zo bo'lib, ular bilan munosabatlarni mustahkamladi.

3. Mamlakatdagi ijtimoiy infratuzilma va iqtisodiyot sohalarini rivojlantirishda xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari, investitsiyalari, kreditlaridan oqilona foydalanilmoqda.

4. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan tashqi siyosat, jumladan, tashqi iqtisodiy aloqalar, xalqaro moliya operatsiyalarini rivojlantirish, xalqaro moliya tashkilotlari bilan munosabatlarni mustahkamlash sohasiga katta e'tibor berilyapti. Jumladan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida “Biz O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro moliya institutlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda tuzilgan shartnoma va kelishuvlarni o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli bajarish bo‘yicha barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘ramiz”,<sup>45</sup> – deya qayd etib o‘tdilar.

5. 2017-yilda O‘zbekistonning jami eksport hajmi 13 958,3 mln. AQSH dollarini, import esa 13 008,3 mln. AQSH dollari bo‘lib, tashqi savdo aylanmasi saldosi 945,5 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

6. Hozirgi kunda mamlakatimizda importning o‘rnini qoplash va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturning maqsadi, mavjud resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan imkon boricha to‘liq va sarnarali foydalanish hamda uni rivojlantirish asosida eksport hajmining barqaror o‘shishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

---

<sup>45</sup> [www.uza.uz](http://www.uza.uz) “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi” 22-dekabr 2017-yil

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilashda muhim va samarali ta'sir o'tkazmoqda. Jumladan, mamlakatimizda valutalarning erkin konvertatsiyasini amalga oshirish imkoniyati yaratilgandan so'ng xalqaro moliya operatsiyalarini amalga oshirish yanada osonlashdi va aholining ushbu sohadagi faolligining oshishiga sababchi bo'ldi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida xalqaro moliya operatsiyalarining mohiyati, nazariy asoslari, turlari ochib berildi, xalqaro moliya operatsiyalarining to'lov balansida aks ettirilishi va ularni boshqarishda qo'llaniladigan usullarning ta'siri tahlil qilindi.

Tadqiqot ishi davomida mamlakatimiz iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarining joriy holatini tanqidiy tahlil qilishga harakat qildik, zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarning – bu Bosh vazir bo'ladimi yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak",<sup>46</sup> – deya ta'kidlab o'tganlar.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi ustida olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy xulosalarga kelindi va takliflar ishlab chiqildi:

1. So'nggi yillarda valuta barqarorligini ta'minlash, erkin konvertatsiyani yo'lga qo'yish, noqonuniy valuta oldi-sotdisiga barham berish maqsadida amalda ko'p ishlar amalga oshirildi. Jumladan, "Valuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177 sonli qarori mamlakatimizning qisqa davrli tarixidagi eng muhim voqealardan biriga aylandi. Shunday bo'lsa-da, hozirda

---

<sup>46</sup> Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak". Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar / Sh. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017 – 104 b.



banklarda AQSH dollaridan boshqa valutalarning konvertatsiyasida kamchiliklar mavjud. Bu muammolarni hal etishda banklarning valuta birjasidagi rolini oshirish, kross kurs amaliyotini rivojlantirish lozim. Buning natijasida banklar operatsiyalari xilma-xilligi ortadi, ya'ni valuta risklarini oldindan baholagan holda valuta oldi-sotdisini amalga oshiradi, o'z navbatida hosilaviy qimmatli qog'ozlar orqali hedjrlash operatsiyalari rivojlanishiga olib keladi.

2. Mamlakatimizda xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solish bo'yicha asosiy me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, haligacha xalqaro kapital bozori, qimmatli qog'ozlar bozori yetarli darajada rivojlanmagan. Xorijiy investitsiyalar kirib kelishiga bir qancha to'siqlar mavjud. Masalan, mahalliy organlar faoliyatida byurokратиyaning mavjudligi xorijiy investorga hujjatlarni rasmiylashtirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Ushbu muammolarni hal etish maqsadida hujjatlarni qabul qilishning elektron tizimini rivojlantirish lozim. Buning natijasida xorijiy investorning mamlakatimizda faoliyatini boshlashi tezlashadi, mahalliy organlar bilan mavjud muammo hal etiladi.

3. Ichki kapital bozorining rivojlanmaganligida aholining banklarga bo'lgan ishonchi pastligi asosiy sabab hisoblanadi. Ya'ni Sobiq ittifoq davrida chiqarilgan qarz majburiyatlari qoplanmaganligi hozirda banklarga bo'lgan aholi ishonchining ortmayotganligini ta'minlamoqda. Buni amalda hal etish maqsadida muomalaga chiqarilgan va hozirda aholi qo'lida qolib ketayotgan qarz majburiyatlarining ehtimoliy hisob-kitobini amalga oshirib, hozirgi kungi qiymatga indeksatsiya qilgan holda qarz majburiyatlarini qoplab berish lozim. Buning natijasida aholining banklarga bo'lgan ishonchi bir muncha ortadi, bu o'z navbatida aholi bo'sh turgan mablag'larining banklarga qaytishiga, banklarning kapital bozoridagi faolligining oshishiga zamin yaratadi.

4. Hozirda mamlakatda mavjud bo'lgan 28ta bankdan 10tasi bevosita yoki bilvosita davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar hisoblanadi, shuningdek, bir qancha davlat ulushi mavjud korxonalar ham mavjud. Rivojlangan mamlakatlarning bank sohasida asosan xususiy banklar faoliyat yuritishini hisobga olib, davlat ulushi mavjud bo'lgan bank va korxonalarni yanada rivojlantirish va ularni

xususiylashtirish maqsadida IPO (Initial public offering)lar o'tkazish orqali xorijiy investorlar jalb qilinsa, bank sohasidagi raqobatni rivojlantirishga va bank sohasidagi innovatsion xizmatlarning yangi turlarini joriy etishga turtki bo'lib, xizmat qiladi.

5. Mamlakatimizda aholining xorijiy qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarining hajmini oshirish lozim. Bunda qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini amalga oshirishda vositachilik xizmatini ko'rsatuvchi xususiy tashkilotlarning o'rni beqiyosdir. Lekin hozirda mamlakatimizda ushbu qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini amalga oshirishda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar sanoqlidir. Shu sababli ushbu turdagi xizmatni amalga oshirishda qatnashuvchi kompaniya yoki firmalar sonini oshirish, aholini qimmatli qog'ozlar bozoriga qiladigan investitsiyalarining nafaqat sonini, balki hajmini ham oshirish maqsadida bu turdagi kompaniya va tashkilotlarga faoliyatini samarali amalga oshirish uchun qulay muhit yaratish maqsadida soliq imtiyozlari berish kerak deb hisoblayman. Buning natijasida aholining xalqaro moliya bozoridagi harakatlarini faollashtirishga erishamiz, bo'sh turgan mablag'lar xorijiy investitsiyaga yo'naltiriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017-y. - 40b.

1.2 O'zbekiston Respublikasining "Budjet kodeksi". T.: "O'zbekiston" 2013-yil 26-dekabr. 2014-yil 1 yanvardan kuchga kirgan.

1.3 O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni. 2000-yil 26-mayda yangi tahrirda qabul qilingan.

1.4 O'zbekiston Respublikasining "Valutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuni. 2003-yil 11-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan.

1.5 O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan.

1.6 O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan.

1.7 O'zbekiston Respublikasining "Eksport nazorati to'g'risida"gi qonuni 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan.

1.8 "Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-iyun 2000-yildagi PF-2613-sonli farmoni

1.9 "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli qarori

1.10 "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

1.11 "Valuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177 sonli qarori

1.12 “Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-dekabrda PQ-3439-sonli qarori

1.13 “Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyundagi PQ-3796-sonli qarori

## **II. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalari.**

2.1 Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: O’zbekiston. – 488 bet

2.2 Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lib qolishi kerak”. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar / Sh. Mirziyoyev. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2017 – 104 b.

2.3 Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016-yil 7-dekabr / Sh. Mirziyoyev – Toshkent: “O’zbekiston”, 2017. – 48 bet.

## **III. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to’plamlar**

3.1 Antony P. Mueller. “Balance of payments analysis”, The Continental Economics Institute Research paper series 2012

3.2 “Balance of payments and International investment position manual”. – Washington D.C.: International Monetary Fund, sixth edition 2012.

3.3 “Balance of payments Statistics Yearbook 2017” – Washington D.C.: International Monetary Fund 2017.

3.4 “Capital flows – review of experience with the institutional view” – Washington D.C.: International Monetary Fund, December 2016

3.5 Peter J. Montiel. “The capital inflow problem” – Washington D.C.: The World bank

3.6 “Liberalizing capital flows and managing outflows” – Washington D.C.: International Monetary Fund, Monetary and Capital Markets Department; the Strategy, Policy, and Review Department; and the Research Department, 2012

3.7 A. Sinyakov, K. Yudaeva, Central bank policy under significant balance of payment shocks and structural shifts, Russian journal of Economics, page 27. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)

3.8 C. Sandu. “Implications of the change in the balance of payments and the situation of its components on the Romanian exchange rate”, Procedia economics and Finance, page 6, [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)

#### **IV. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

4.1 J. Ataniyazov, E. Alimardonov. “Xalqaro moliya munosabatlari” – darslik – T.: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2014, 433 b.

4.2 Д.Р. Вахитов, Г.Н. Белицкая, Г.Т. Гафурова “Финансы” учебно-практическое пособие. – Казань, Институт экономики, управления и права, 2013г, 158 стр.

4.3 A.Vahobov, U.Burxanov, N.Jumayev, “Xalqaro moliya munosabatlari”, Toshkent moliya instituti, T: 2013, 293 bet

4.4 Под редакцией Л.Н.Красавиной «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения, Москва – «Финансы и Статистика» 2012. 576 стр.

4.5 G. Nazarova., I. Axmedov., O. Hamidov., Z. Iminov. “Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar”, o‘quv qo‘llanma, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2011, 243 bet.

4.6 Colin D. Campbell, Edwin G. Golan. Money, banking, and monetary policy, the Dryden Press, a division of Holt, 2013, 358 pages.

4.7 C. Paramasivan, T. Subramanian. “Financial management”, New age international publishers, Vivekananda college of arts and sciences for women, 2011, 280 pages.

4.8 Моисеев С. Р. «Международные финансовые рынки и международные финансовые институты». Учебное пособие. Москва: Московский международный институт эконометрики, информатики, финансов и права, 2010, 245 стр.

4.9 Федякина Л. Н. «Международные финансы», Москва: Московский Государственный институт международных отношений, 2010, 178 стр.

4.10 G. Nazarova, X. Xalilov, A. Azimov, I. Xanova. “Xalqaro iqtisodiy integratsiya”. Darslik, Toshkent: “Tafakkur”, 2010, 266 bet.

## **V. Internet saytlari**

5.1 [www.norma.uz](http://www.norma.uz)

5.2 [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

5.3 [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

5.4 [www.imf.org](http://www.imf.org)

5.5 [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

5.6 [www.bis.org](http://www.bis.org)

5.7 [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

5.8 [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

5.9 [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)

## ILOVALAR

### To'lov balansi tuzilmasi

<b>№</b>	<b>Hisobraqamlar nomi</b>
<b>1.</b>	<b>Joriy operatsiyalar hisobi</b>
1.1	<b>Tovarlar va xizmatlar</b>
1.1.1	Tovarlar
1.1.2	Xizmatlar
1.2	<b>Birlamchi daromadlar</b>
1.2.1	Mehnatga to'lovlar
1.2.2	Investitsion daromadlar
1.2.3	Boshqa turdagi birlamchi daromadlar
1.3	<b>Ikkilamchi daromadlar</b>
1.3.1	Davlat boshqaruvi sektori
1.3.2	Moliyaviy tashkilotlar, nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari
1.3.3	Pensiya olish shaklida o'zgarishlarni to'g'rilash
<b>2.</b>	<b>Kapital bo'yicha operatsiyalar hisobi</b>
2.1	<b>Yalpi sotib olish</b>
2.2	<b>Kapital transfertlar</b>
2.2.1	Davlat boshqaruvi sektori
2.2.2	Moliyaviy tashkilotlar, nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari
<b>3.</b>	<b>Moliyaviy hisob</b>
3.1	<b>To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar</b>
3.1.1	Daromadlarni reinvestitsiya qilmasdan kapitalda ishtirok etish
3.1.2	Qarz instrumentlari
3.2	<b>Portfel investitsiyalar</b>
3.2.1	Kapitalda qatnashish instrumentlari va investitsion fondlarning aksiya va paylari
3.2.2	Qarz qimmatli qog'ozlari
3.3	<b>Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (zaxiralardan tashqari) va hodimlar aksiyasiga opsiyonlar</b>
3.3.1	Markaziy bank
3.3.2	Depozit tashkilotlari (Markaziy bank bundan mustasno)
3.3.3	Davlat boshqaruvi sektori
3.3.4	Boshqa sektorlar
3.4	<b>Boshqa investitsiyalar</b>
3.4.1	Kapitalda qatnashishning boshqa instrumentlari
3.4.2	Naqd valuta va depozitlar

	3.4.3	Ssuda va zaymlar
	3.4.4	Sug'urta va pensiya dasturlari va standart kafolat dasturlari
	3.4.5	Savdo kreditlari va avanslar
	3.4.6	Boshqa debitorlik va kreditorlik qarzdorliklar - boshqalar
	3.4.7	Qarz olishning maxsus huquqi
	3.5	<b>Zaxira aktivlar</b>
	3.5.1	Monetar oltin
	3.5.2	Qarz olishning maxsus huquqi
	3.5.3	XVFDagi zaxira pozitsiyasi
	3.5.4	Boshqa zaxira aktivlari
<b>Sof xato va o'tkazib yuborishlar</b>		
1.		Joriy va kapital transfertlar
2.		To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar
3.		Portfel investitsiyalar - majburiyatlar
4.		Boshqa investitsiyalar - majburiyatlar
5.		Muddati o'tgan qarzdorliklar



## Joriy operatsiyalar hisobi

1.	Hisobvaraqlar nomi	Debet	Kredit
	Joriy operatsiyalar hisobvarag'ining saldos	+	-
<b>1.1</b>	<b>Tovarlar va xizmatlar</b>		
	Tovar va xizmatlar bo'yicha saldo	+	-
<b>1.1.1</b>	<b>Tovarlar</b>		
	Tovarlar oldi-sotdisi saldos	+	-
	To'lov balansi metodologiyalari asosida tovarlar eksporti va importi		
	<i>Shu jumladan: reeksport</i>		
	Xorijda tovarlarning qayta oldi-sotdisi operatsiyalari doirasidagi tovarlar sof eksporti		
	<i>Xorijda tovarlarning qayta oldi-sotdisi doirasidagi sotib olingan tovarlar (manfiy eksport)</i>		
	<i>Xorijda tovarlarning qayta oldi-sotdisi doirasidagi sotilgan tovarlar (eksport)</i>		
	Nomonetar oltin		
<b>1.1.2</b>	<b>Xizmatlar</b>		
	Xizmatlar savdosi bo'yicha saldo	+	-
	Boshqa tomonga tegishli moddiy resurslarni qayta ishlash xizmati		
	Boshqa kategoriyalarga tegishli bo'lmagan ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar		
	Transport xizmatlari		
	Safarlar		
	Qurilish		
	Pensiya ta'minoti va sug'urtalash doirasidagi xizmatlar		
	Moliyaviy xizmatlar		
	Boshqa kategoriyalarga tegishli bo'lmagan intellektual mulkdan foydalanish uchun to'lovlar		
	Telekommunikatsion, komputer va informatsion xizmatlar		
	Boshqa ish-xizmatlar		
	Xususiy shaxslarga xizmat ko'rsatish va madaniyat va dam olish bo'yicha xizmatlar		
	Boshqa kategoriyaga tegishli bo'lmagan davlat tovarlari va xizmatlari		

## Birlamchi daromadlar

1.	Hisobvaraqlar nomi	Debet	Kredit
	Birlamchi daromadlar saldos	+	-
1.1	<b>Mehnatga haq to'lash</b>		
1.2	<b>Investitsion daromadlar</b>		
1.2.1	To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar		
	Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning aksiya va paylaridan daromadlar		
	Foizlar		
1.2.2	Portfel investitsiyalar		
	Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning aksiya va paylaridan investitsion daromadlar		
	Foizlar		
1.2.3	Boshqa investitsiyalar		
	Kvazikorporatsiyalar daromadlaridan ulushlar		
	Foizlar		
1.2.4	Zaxira aktivlar		
1.3	<b>Boshqa birlamchi daromadlar</b>		
1.3.1	Ishlab chiqarish va importga soliqlar		
1.3.2	Subsidiyalar		
1.3.3	Renta		

## Ikkilamchi daromadlar

1.	Hisobvaraqlar nomi	Debet	Kredit
	Ikkilamchi daromadlar saldos	+	-
1.1	<b>Davlat boshqaruv sektori</b>		
1.1.1	Daromad, mulk va h.k larga nisbatan soliq		
1.1.2	Ijtimoiy ehtiyojlarga chegirmalar		
1.1.3	Ijtimoiy nafaqalar		
1.1.4	Xalqaro hamkorlik doirasidagi joriy operatsiyalar		
1.1.5	Davlat boshqaruv sektorining turli joriy transfertlari		
1.2	<b>Moliya tashkilotlari, nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari</b>		
1.2.1	Shaxsiy transfertlar		
1.2.2	Boshqa joriy transfertlar		

### Kapital bo'yicha operatsiyalar hisobi

1.	Hisobvaraqlar nomi	Debet	Kredit
	Kapital bo'yicha operatsiyalar hisobi saldosi	+	-
<b>1.1</b>	<b>Yalpi sotib olish</b>		
<b>1.2</b>	<b>Kapital transfertlar</b>		
1.2.1	Davlat boshqaruvi sektori		
	Qarzlarni kechish		
	Boshqa kapital transfertlar		
1.2.2	Moliya tashkilotlari, nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari		
	Qarzlarni kechish		
	Boshqa kapital transfertlar		